


**S.T.TURG'UNOV, L.A.MAQSUDOVA,
H.M.TOJIBOYEVA, G.M.NAZIROVA,
M.A.UMARALIYEVA**



**PEDAGOGIK JARAYONLARNI
TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH,
SIFAT VA SAMARADORLIGINI
OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI**

Toshkent - 2014

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON
PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**S.T.Turg'unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva,
G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva**

**PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH, SIFTIY VA SAMARADORLIGINI
OSHIRISH TEKNOLOGIYALARI**

УДК: 371.241

ББК: 78.38

Р-53

Mazkur monografiya A1-XT-1-33147 - "Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari" amaliy tadqiqot loyihasi doirasida tayyorlangan.

Monografiyada keltirilgan ma'lumotlardan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishlaridagi qo'llanmalar va uslubiy tavsiyalar tayyorlashda, uzluksiz ta'lim tizimi (maktabgacha ta'lim, umumiyo'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi)da ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirishda, ta'lim muassasasi rahbarlari hamda pedagog xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimlarida hamda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari talabalari uchun ta'lim menejmenti, pedagogika va boshqaruva yo'nalishida tashkil etiladigan barcha o'quv mashg'ulotlarida keng foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrir:

R.X.Djurayev

- Pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Sh.Q.Mardonov

- Pedagogika fanlari doktori

Sh.S.Shodmonova

- Pedagogika fanlari doktori

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Ilmiy Kengashi qarori (03.10.2014 №9) bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN - 978-9943-4491-9-0

© O'zbekiston Respublikasi O'zPFITI nashriyoti, 2014 yil.

KIRISH

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzlusiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutgan holda ta'lim oluvchilarda bilim olishga va yangiliklarni puxta o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy o'quv ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishni uzlusiz ta'lim jarayonlarining asosiy vazifalari sifatida belgilab berdi.

Uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vazifalarni amalga oshirish, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini ta'minlash pedagogik jarayonlar ishtirokchilari hisoblangan ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar va boshqa mutaxassis xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zaruriyatini belgilaydi.

Uzlusiz ta'lim tizimida ta'lim jarayoni ishtirokchilari ehtiyojlari, shuningdek, fan, ta'lim, ishlab chiqarish ehtiyojlardidan kelib chiqib, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda uzlusiz ta'lim tizimining asosiy komponentlari hisoblangan maktabgacha ta'lim, umumiyl o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining integrativ tabiatiga mos ta'lim jarayonlari samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni tanlash, hamda pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etishning eng asosiy omillaridan biri bo'lgan pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashda mazkur jarayon ishtirokchilarining ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko'maklashuvchi jarayonlar hisoblangan ta'lim, mustaqil ta'lim, tarbiya, o'zini-o'zi tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan pedagogik jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, mavjud ziddiyatlarni va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash; pedagogik tizim komponentlarning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini ta'minlash; ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun o'quv-seminarlari tashkil etish va o'quv-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi, oila, mahalla, jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish pedagogik tizimning asosiy komponentlari hisoblangan ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

I BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

1.1. Ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar va pedagogik tizim

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch asarida "Ta'lifni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'lifdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"¹, deb aytgan fikrlari ta'lif va tarbiya tushunchalarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, ya'ni ular yaxlit pedagogik jarayon sifatida mavjudligini ifodalaydi.

Avval ham ta'kidlanganimizdek, pedagogik jarayon tushunchasi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinsada, mazkur jarayon ta'lif-tarbiya jarayoni sifatida shaxsning kamol topishida muhim ahamiyat kash etadi, chunki u bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o'rganilishi va o'zlashtirilishi hamda ularning o'rganganlarini amaliyotga tatbiq etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beradi.

Tadqiqotchilar V.A.Slastenin va A.I.Mishenkolarning ta'kidlashicha, pedagogik jarayon - bu ta'lif-tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan va maxsus tashkil etilgan pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning o'zaro ta'sir jarayonidir. Pedagoglar va tarbiyalanuvchilar subyekt sifatida pedagogik jarayonning asosiy komponentlari hisoblanadi².

P.I.Obrazsov va V.M.Kosuxinlar pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida uning yaxlitligini ajratib ko'rsatgan holda, quyidagilarni pedagogik jarayon komponentlari sifatida keltiradi: ta'lif mazmuni va o'quv

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.62.

² Сластикин В.А., Мищенко А.И. Целостный педагогический процесс как объект профессиональной деятельности учителя. Москва, 1997. – Б.19

materiallarini loyihalashtirish va o'zlashtirish jarayonlari; ta'lif mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida tashkil etiladigan ta'lif jarayoni; o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keluvchi rivojlanish jarayoni; o'quvchi va o'qituvchilarning shaxsiy munosabatlar darajasidagi o'zaro ta'sir jarayoni (norasmiy muloqot jarayoni); ta'lif mazmunini o'quvchilar tomonidan bevosita o'qituvchining ishtirokisiz o'zlashtirish jarayoni (mustaqil ta'lif va o'zini-o'zi tarbiya)¹.

Ushbu tadqiqotchilar ta'lif, rivojlanish, muloqot, mustaqil ta'lif va o'zini-o'zi tarbiya jarayonlarini yaxlit pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko'rsatadilar.

Uzluksiz ta'lif tizimida tashkil etiluvchi pedagogik jarayonda subyektlarning ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko'maklashuvchi, pedagogikaning "tarbiya"- "o'zini-o'zi tarbiya", "ma'lumot"- "mustaqil ma'lumot", "ta'lif"- "mustaqil ta'lif", "rivojlanish" va "tarbiyaviy munosabatlar" tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi hamda bir-birini ta'minlovchisi sifatida shaxsning rivojlanishi hamda shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, shaxsning rivojlanishida uning mustaqil faoliyati, ya'ni mustaqil ta'lif va mustaqil ma'lumotlar olishi hamda o'zini-o'zi tarbiyalashi muhim ahamiyatga ega ekanligini hamda uzluksiz ta'lif tizimining pedagogik jarayonlarida ta'lif oluvchi shaxsini rivojlantirishning asosi sifatida ta'lif - mustaqil ta'lif, tarbiya - o'zini-o'zi tarbiya, ma'lumot - mustaqil ma'lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni yaxlit pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.

¹ Образцов П.И., Косухин В.М. Дидактика высшей воспитной школы: Учебное пособие. – Орел: Академия Специалистов России, 2004. – Б.19.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning asosiy komponenti sifatida ta'lim oluvchi shaxsining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi ta'lim - mustaqil ta'lim, tarbiya - o'zini-o'zi tarbiya, ma'lumot - mustaqil ma'lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari bilan bir qatorda, oila, mahalla, ta'lim muassasasi va tengdoshlari o'rtasida vujudga keluvchi o'zaro ta'sir jarayonini ham inobatga olish zarur.

O'zaro ta'sir - bu inson faolligining ko'rinishi sifatida, muloqotning interfaol shakli va individ faoliyatining ma'lum bir turi sifatida mustaqil ahamiyat kasb etuvchi jarayon. O'zaro ta'sir jarayonida muloqot vujudga keladi va bunda inson o'zini-o'zi anglaydi, o'z ehtiyojini, shaxsiy hayotiy tushunchalarini, faolligini namoyon etadi. Buning uchun inson o'zining qaysi tizimga va qaysi jamiyatga xosligini anglashi zarur. O'zaro ta'sir jarayonida ishtirok etayotgan inson nafaqat o'zini va shaxsiy xususiyatlarini, balki aniq holatni, vaziyatni ham o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, bunda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi subyektlarning rivojlanishi amalga oshadi, shuningdek, o'zaro ta'sir jarayoni ham rivojlanadi.

A.A.Bodalyovning fikricha, insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir inson psixologiyasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishining eng asosiy omili bo'lib, mazkur jarayon ishtirokchilarining o'zaro teng harakatlari shaxslararo aloqalarning vujudga kelish sharti hisoblanadi¹.

Bizning fikrimizcha, uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning komponenti sifatida quyidagilarni inobatga olish zarur:

- subyektning faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishi; shaxsning psixologik xususiyatlarining o'zgarishi;

¹ Бодалиев А.А. О предмете ахмезиологии // Психологический журнал. – М., 1993. – Т. 14. – № 5. – С. 17

- ma'naviy va madaniy tushunchalarning rivojlanishi; o'zini-o'zi anglash va o'zini-o'zi baholash ko'nikmalarining rivojlanishi;
- kasbiy kompetentlilik darajasini ortishi;
- hamkorlikdagi faoliyatni vujudga kelishi va unda axborotlar almashinuvi natijasida kasbiy faoliyatga psixologik moslashuvni vujudga kelishi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda uzlusiz ta'limga tizimida ta'limga oluvchilar uchun tashkil etiladigan ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, to'garak mashg'ulotlari, ekskursiya, davra suhbati, uchrashuvlar, fanlar bo'yicha tashkil etiladigan musobaqa va tanlovlari, san'at festivallari, konferensiya va boshqa turli yo'nalishlardagi tadbirlar (pedagogik tahlil, o'zaro dars kuzatish, ustoz-shogird tizimi, maslahatlar)ni, o'quvchi, talaba va o'qituvchilarining o'zlarini tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ta'limga, o'zini-o'zi tarbiya, mustaqil ma'lumot, mustaqil ishlarni, shuningdek shaxslararo munosabatlar jarayonida bevosita vujudga keluvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonini hamda pedagogik tajriba-sinov va pedagogik amaliyot jarayonlarini **uzlusiz ta'limga tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar** deb aytishimiz mumkin.

Mazkur jarayonlarning maqsadi, yo'nalishi, mazmun-mohiyati va ahamiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak ularning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini, ya'ni ularda uzlusiz ta'limga tizimiga xos xususiyatlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin, chunki pedagogik jarayonlar deb atalayotgan soddadan murakkabga qarab davom etayotgan jarayonlarning ixtiyoriy birining o'zgarishi ikkinchisi, uchinchisi va boshqalarining o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqotlarda "tizim" tushunchasi juda keng qo'llaniladi, masalan, ta'limga tizimi, tarbiya tizimi, ta'limga

tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va metodlari tizimi va hokazo.

Tadqiqotchi M.U.Dexqanovaning ta'kidlashicha, tizim - ma'lum bir ketma-ketlikda tartiblangan, nisbatan mustaqil, mantiqan o'zaro uzviy bog'langan va birqalikda umumiy funksiyani bajaruvchi elementlar majmuidir¹.

N.A.Muslimovning ta'kidlashicha, tizimlilik butun olamning umumiy xususiyatidir. Tabiat, jamiyat, inson faoliyati va fikrlashidagi tizimlilik bunga misol bo'la oladi. Ushbu umumiy xususiyatdan kelib chiqib, "tizimlilik" tushunchasini jarayonlar va borliqdagi hodisalarning tizim hosil qila olishi, tizimning mavjudligi, moddiy dunyoning hamda uni bilish shakllarining va demak, pedagogik faoliyatning ham tizimli qurilishga ega ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin².

N.V.Kuzminaning ta'kidlashicha, ijtimoiy tizimning turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim - insonlarga va yosh avlodga ta'lif va tarbiya berish, ta'lif jarayonini tashkil etish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog'liq bo'lgan komponentlar majmuidan iboratdir.

Bizning fikrimizcha, pedagogik tizim umumiy maqsadlar yo'nalishida, funksional vazifalarni amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir.

Pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariiga ega ekanligini inobatga olib, uzluksiz ta'lif tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi pedagogik tizimni tashkil etadi deb aytishimiz mumkin.

¹ Dexanova M.U. Kasb-hunar ta'lifi rahbar xodimlarining malakasini oshirish jarayoniga tizimli yondashuv.: Ped. f.a ... diss. avtoresf. – Toshkent, 2005. – 10 b.

² Muslimov N.A. Kasb ta'lifi o'qituvchisini kasbiy shakllantrishning nazariy-metodik asosları.: Ped. f. d. ... diss. avtoresf. – Toshkent, 2007. – B.24.

Shunday qilib, pedagogik tizim ta'lim muassasasining maqsadi, vazifasi, ta'lim muassasasi tomonidan tanliangan model, strategiyalari orqali tavsiflanadi. Pedago ik tizim belgilangan maqsad yo'nalishida, uzuksiz ta'lim tizimi subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, funksional vazifalarini amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir.

Demak, uzuksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olgan holda yaxlit pedagogik tizim deb hisoblasak, ularni tashkil etish va boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo'lishi kerak. Pedagogik tizimning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuvning mazmun va mohiyatini quyidagi **tamoyillar** asosida ko'rsatishimiz mumkin:

- uzuksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayon ishtirokchilari mazkur jarayon subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatishi, ya'ni pedagogik jarayonlarda subyekt-subyekt munosabatlarining qaror topishi;
- uzuksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayon subyektlari faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;
- majmuaviylilik - pedagogik jarayonlar o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi;
- integrativlik - harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi;
- o'zaro bog'liqlik - uzuksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;
- kommunikativlik - pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi muammolarning ko'pqirraliligi va murakkabligi, nafaqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni sifat jihatdan o'zgartirishni nazarda tutadi, balki uning mazmunini takomillashtirish zaruriyatini ham belgilaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan, oldindan loyihalashtirilgan hamda mayjud imkoniyatlar va ilmiy-pedagogik salohiyat darajasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar asosiy (ta'lim-tarbiyaviy) va yordamchi (ta'minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarni rivojlantirish asosiy (ta'lim-tarbiyaviy) va yordamchi (ta'minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlar ishtirokchilarining faoliyatları bilan bog'liq holda, ilmiy-pedagogik salohiyatni boyitish, imkoniyatlarni kengaytirish asosida yanada yangi sifatlarga, yuqori va samarali natijalarga erishishga yo'naltirilgan va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishish va rivojlantirish uchun odatda belgilangan mezonlarni almashtirish, asosiy va yordamchi jarayonlarni yoki mazkur jarayonlar ishtirokchilarining faoliyatini takomillashtirish zarur bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlar bir butun organizm sifatida ichki o'zgarishlarga asosan rivojlanadi va o'zaro aloqalar tizimi barqarorlashadi. Turli xil muammolarni hal etish zamонавиу usullar yordamida maqsadga erishishdagi vazifalar amalga oshiriladi, natijalar zamон talablariga moslashadi va **pedagogik tizim samaradorligi** ta'minlanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning umumiyl modelini o'zgartirishda o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning

imkoniyatlari, boshlang'ich tushunchalari va ishonchlariga asoslanish kerak, chunki yangilangan model zamonaviy talablar darajasida ta'lif oluvchilarining o'zgaruvchan ta'lif tarbiyaviy, ma'naviy ehtiyojlarini qondira olishi, ilg'or pedagogik tajribalarni qo'llash hamda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishi zarur.

Uzluksiz ta'lif tizimidagi pedagogik jarayonlarning umumiyligi modelini o'zgartirish asosida mazkur jarayon ishtiroychilari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini rivojlantirish va pedagogik jarayonda subyekt-subyekt munosabatlarini qaror toptirish uchun quyidagi asosiy **tamoyillarni** inobatga olish lozim:

- uzluksiz ta'lif tizimidagi pedagogik jarayonlarni samarali rivojlantirish yo'llari taxminiy belgilanganda ularning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar subyektlarning qobiliyatlariga, pedagoglarning qulay vaziyatlarni ko'ra olishi va ularni qo'ldan chiqarmasligiga bog'liqligi;

- tizimli obyekt sifatida uzluksiz ta'lif tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun uni tashkil etuvchi barcha komponentlarning rivojlanish sur'atlarini, subyektlar munosabatlari va faoliyati integratsiyasini ta'minlash hamda muvofiqlashtirishning zarurligi;

- uzluksiz ta'lif tizimidagi pedagogik jarayonlarning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar mavjud omillarga asoslangan holda rahbar va o'qituvchilarining kelajakni ko'ra olish hamda rivojlanish imkoniyatlarini oldindan aniqlay olish mahoratlariga bog'liqligi;

- murakkab tuzilishga ega bo'lgan pedagogik jarayonlarning rivojantirishga bo'lgan ehtiyojlar va imkoniyatlarni, subyektlarning qobiliyatlarini va boshlang'ich tushunchalarini aniqlamasdan uzluksiz ta'lif tizimidagi pedagogik jarayonlarning rivojlantirish yo'nalishlarini majburan belgilashning mumkin emasligi;

- kuchli, majburiy va keng qamrovli ta'sir ko'rsatish usullari asosida uzlusiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash imkoniyatining mavjud emasligi;

- tashkil etuvchi qismlar va bo'g'inlar bo'yicha aniq belgilangan tartibda (lokal) ta'sir ko'rsatish uzlusiz ta'lim tizimida tashkil etiluvchi va boshqariluvchi pedagogik jarayonlarning samarali rivojlanishida yaxshi natijalarga erishishga asos sifatida xizmat qilishi.

Uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarning umumiyligi modelini o'zgartirishda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish, ya'ni ularning har birining samaradorligi ikkinchi bir tizim jarayoni samaradorligiga ta'sir ko'rsatishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Mazkur zaruriyatlar uzlusiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

1.2. Uzlusiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda katta ahamiyatga ega bo'lgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Barpo etilayotgan yangi bozor munosabatlariga asoslangan demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati insonlarning jamiyat hayotiga, mehnatga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirishini talab etadi. Endilikla har bir kishi o'zgalarga emas, balki shaxsan o'zining imkoniyatlariga, qobiliyati va iste'dodiga tayanishi, shulardan kelib chiqib yashashi kerak.

Shu o'rinda uzlusiz ta'lim tizimini ham izohlash talab etiladi.

"Pedagogik atamalar lug'ati"da uzluksiz ta'lim - o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi sifatida ta'riflanadi¹.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismi sifatida quyidagicha belgilanadi:

Uzluksiz ta'lim - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi².

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi³.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilanishicha, uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi DTSlar asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim.

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishga hamda mazkur jarayon subyektlari (o'qituvchi va ta'lim oluvchilar)ning ehtiyojlari va manfaatlarining uyg'unligi asosida belgilangan maqsadlarga

¹ Pedagogik atamalar lug'sti. Tuzuvchi mualliflar: R.X.Djurayev, O'.Q.Tolipov, R.G'.Safarova, X.O.Te'raqulov, M.E.Inoyatova, M.S.Divanova. FA "Fan" nashriyoti, T.: 2008. B. 133.

² Barkomol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevoi. T.: 1997, B.42

³ O'sha manba. B.43

erishishga qaratilgan hamkorlikdagi tashkil etiladigan faoliyat jarayoni hisoblangan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish - mavjud imkoniyatlardan (vujudga keluvchi turli vaziyatlar, subyektlarning boshlang'ich tushunchalari, ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlari, ilmiy-metodik ta'minot va h.k.) oqilona foydalanishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayon tashkilotchilari hisoblangan rahbarlar va o'qituvchilar belgilangan maqsadlarga erishishda ta'lim oluvchilarning boshlang'ich tushunchalari, qiziqishi, ehtiyoji va qobiliyatlarini, shaxsiy xislatlarini, shuningdek pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etishning murakkab tomonlarini faol o'rganishlari va shular asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli tadbirlarni ishlab chiqishlari zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarning faolligini ta'minlash va takomillashtirish hamda o'quv jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri pedagog xodimlarning faoliyatini ilmiy asosda tashkil etilishidir.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchi faoliyatining ilmiyligi - yangiliklarini izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zlashtirish, shular qatori pedagogik jarayonlarga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning samaradorligi - bu boshqaruv qonuniyatları, usul va metodlari hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv faoliyati asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviyligi hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi ta'lim oluvchilarining fanlar bo'yicha olgan bilimlari, zamonaviy texnika va axborot texnologiyalarini o'rganishi, intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasini hamda o'qituvchilar va rahbarlarning bilimi, ko'nikma va malakalari, shuningdek pedagogik mahorati va kasbiy qibiliyatlarining rivojlanish darajalarining o'sishini belgilaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning samaradorligi mazkur jarayonning asosini tashkil etuvchi ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviylici hisoblanadi, chunki samaradorligi tekshirilayotgan yangilikdar va tatbiq etilayotgan innovatsiyalar hamda tashkil etilayotgan innovatsion jarayoni aniq bir maqsadga, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlarining bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari darajasining o'sishi bilan belgilanadi.

V.V.Sergeyeva¹ning fikriga ko'ra, samaradorlikni ta'minlash uchun turli usullar va metodlarni qo'llash; nazoratni obyektiv amalgaga oshirish va nazorat natijalarini tahlil qilish; xatolarni o'z vaqtida tuzatish; tekshiruvchining kompetentligi yo'nalishida gi talablarni bajarilishi zarur.

Shunday ekan, uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashda ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni muntazam tadqiq qilish, subyektlar faoliyatini nazorat qilish, nazorat natijalarini tahlil qilish va obyektiv baholash asosida

¹ Сергеева В.В. Управление образовательными системами. – М.: Новая школа, 2000. – С. 27

qo'llab-quvvatlangan, ma'qullangan, shuningdek, o'qituvchilar va ta'lif oluvchilar o'rtaida yangi va ishonchli axborotlar almashinuvini ta'minlovchi tizimni joriy etish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lif tizimidagi pedagogik jarayon ishtirokchilari tomonidan ko'zlangan maqsadlar yo'nalishida erishilgan natijalar mazkur jarayonning samaradorligini ifodalaydi va u pedagogik jarayon subyektlari (mazkur jarayon ishtirokchilari) dunyoqarashining o'zgarishi, tafakkurining rivojlanishi, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishi o'z ifodasini topadi.

Uzluksiz ta'lif tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish samaradorligi ko'p jihatdan uning quyidagi o'ziga xos jihatlarini inobatga olish zaruriyatini belgilaydi:

- pedagogik jarayon samaradorligi o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan ta'lif-tarbiyaviy jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi;
- pedagogik jarayonning o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan barcha tashkil etuvchi qismlari bir butun, yaxlit dinamik tashkiliy tuzilishga ega ekanligi;
- pedagogik jarayon dinamikasi protsessual xususiyatlarga ega ekanligi;
- pedagogik jarayon komponentlarining o'zgarishi pedagogik tizim samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi.
- pedagogik jarayonlar samaradorligi ta'lif oluvchilar faoliigi va mustaqil faoliyatiga bog'liqligi;
- ta'lif oluvchi shaxsining rivojlanishiga turli darajada ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligi;
- pedagogik jarayonlar komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi;
- pedagogik jarayonlarda qayta aloqaning o'ziga xos ahamiyati va zaruriyat;
- pedagogik jarayonning protsessual tomoni va nolteg'ri va teskari jarayonlarning mavjudligi;



- ta'lim oluvchilarda ta'lim olishga bo'lgan qiziqish, ya'ni ularda o'quv motivlarini shakllantirish zaruriyati;
- ta'lim oluvchilarda ijobiy motivlar shakllantirishning samaradorligi pedagogik jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi;
- pedagogik jarayonlarni samaradorligining motivlashtirishga bog'liqligi;
- pedagogik jarayonlarda axborotlarning yangi va ishonchli bo'lishi zaruriyati.

O'r ganiladigan tushunchalarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash ko'zlangan natijalarga samarali erishishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik jarayonlarni va o'r ganiladigan tushunchalarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib qo'llaniladigan metodlar va tatbiq etiladigan yondashuvlarni tanlash hamda ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda dars (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, ekskursiya), darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar (davra suhbati, uchrashuv, turli musobaqa va tanlovlар, konferensiya va h.k.), mustaqil ta'lim hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini, shuningdek ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda oliy ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalari uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot yaxlit, bir butun dinamik tizim ko'rinishida tasavvur qilinib loyihalashtirilishi zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish va tashkil etishda dars va darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar, mustaqil ta'lim, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik amaliyot va pedagogik tajriba-sinov jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash ta'lim oluvchilar uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi hisoblangan

pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalar turli yondashuvlarga asoslanishi hamda pedagogik jarayon samaradorligi mazkur jarayon ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish va boshqarishda qo'llaniladigan metodlar va yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlariga ham bog'liqligi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlarini o'rghanish zaruriyatini belgilaydi.

1.3. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, qo'yilgan maqsadlarga erishish va samaradorlikni ta'minlashda subyektlar faolligini ta'minlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va obyektiv baholash asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish va uning natijaviyligini ta'minlash boshqaruvning qator funksiya va metodlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish hamda boshqarish bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, tashkil etish boshqarishga asos sifatida xizmat qiladi. Boshqaruv nazariyasida tashkil etish boshqaruvning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tiziimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda pedagog xodimlar tomonidan bajariladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo'nalishiga ko'ra boshqaruvning rejalashtirish va tashkil etish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

- pedagogik jarayonlarni rejalashtirish;

- subyektlar (ta'lim oluvchilar) uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda vazifalar taqsimlash;

- subyektlar faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida rag'batlantirish.

Shuningdek, pedagog xodimlar tomonidan pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, ularning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda faolligini ta'minlash va ta'lim olishga qiziqishini shakllantirishda **motivlashtirish** funksiyasi amalga oshiriladi.

Motivlashtirish bu ma'lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, o'quvchi faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir. Motivlashtirish jarayonida pedagogik jarayon subyektlari ehtiyojlari yoki ularning umumiyl manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur hisoblanadi, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayonlarda motivlashtirish ijtimoiy amaliyot va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, subyektlarning qiziqishlarini, egallayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil qilish orqali ularning faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Mavjud ehtiyojlarni o'rganish asosida o'quvchilar faolligini ta'minlashga va rivojlantirishga, ya'ni o'qish, o'rganish va bilim olishga yo'naltiruvchi motivlarni shakllantirish pedagogik jarayonlarda subyektlar faolligini ta'minlash va rivojlantirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ularni jismoniy yoki aqliy mehnatga, shuningdek, dam olish, bilim olish, hunar o'rganish, umuman olganda yashash uchun kurashishga chorlaydi. Pedagogik jarayonlarda motivlashtirish jarayoni mavjud ehtiyojlarga qoniqish hosil qilish uchun, ya'ni ehtiyojlarning qondirilishi uchun maqsadni belgilash va unga erishish uchun harakat qilishdan boshlanadi. Mazkur jarayonda ehtiyojning

qondirilish darajasi o'quvchining muayyan faoliyatining holatini belgilaydi.

Pedagogik jarayonlarda ko'zlangan natijalarga erishish uchun belgilangan maqsad va mavjud imkoniyatlarni ta'lim oluvchilar manfaati va ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish hamda ularning faoliyatini vaziyatlarga ko'ra moslashtirib va muvofiqlashtirib borishda **muvofiqlashtirish funksiyasi** amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarning boshlang'ich tushunchalari darajasi, qobiliyatları, shaxsiy xislatlari, qiziqishlari, shuningdek, pedagogik jarayonlarni vaziyatlarga ko'ra muvofiqlashtirishning murakkab tomonlarini o'rganish va shular asosida mazkur jarayonni takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan omillarni aniqlash jarayonida ko'zlangan natijalarga erishishda **nazorat funksiyasi** pedagog xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda amalga oshiriladigan funksiyalarни shartli ravishda professional va ijtimoiy-psixologik funksiyalarga ajratish mumkin.

Pedagogik jarayonlarning subyektlari tomonidan o'z funksional vazifalarini (o'qitish va o'qish) bajarishi jarayonida **professional funksiyalar** amalga oshiriladi va mazkur jarayonda pedagogik jarayon subyektlari hisoblangan o'qituvchilar bilan ta'lim oluvchilar hamda ta'lim oluvchilarning o'zları o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlar tarbiyaviy munosabatlarning inson-inson munosabatlari shakli bo'lib, bunda **ijtimoiy-psixologik funksiya** amalga oshiriladi.

Axborotlar bilan ishslash mazkur funksiyani amalga oshirish jarayonida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda axborotlar bilan ishslash turli ma'lumotlarni o'plash, qayta ishslash va uzatishdan iborat bo'lib,

subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo'llaniladi. Mazkur funksiya subyektlar o'rtasidagi axborotlarning almashuvini ta'minlash vazifasini bajaradi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri axborotlar tizimi bo'lib, u pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi barcha me'yoriy hujatlarni, iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va tashkiliy yangiliklardan iborat axborotlar oqimini, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bunda axborotlarning yangiligi va ishonchliligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni o'rganish va ishonchliligini aniqlash jarayonida **axborot-tahlil funksiyasi** amalga oshiriladi.

Axborot-tahlil funksiyasining asosiy vazifasi uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar va uning subyektlari hisoblangan ta'lim oluvchilar to'g'risida axborotlar to'plash va ularni muntazam o'rganish va tahlil qilish asosida obyektiv baholashdan iborat bo'lib, mazkur axborotlarning yangiligi va ishonchliligi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki to'plangan axborotlar mavjud shart-sharoitlarni, o'zaro munosabatlarni va ta'limiy muhitning holatini hamda ta'lim oluvchilarining qiziqishi, moyilligi, individual psixologik xususiyatlari, qobiliyatları hamda imkoniyatlarini ifodalaydi va o'z navbatida, pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Axborot-tahlil funksiyasini samarali amalga oshirish, uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun zaruriy axborotlarni to'plash va ularning ahamiyatini, yangiligi va ishonchliligini o'rganish hamda tahlil qilish

asosida obyektiv baholash kabi vazifalarni amalga oshirish usullari va yo'llari majmuidan iborat bo'lgan, uzlucksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarga samarali, maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatuvchi, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish mexanizmi hisoblanadigan boshqaruv metodlaridan biri axborot to'plash metodidan oqilona foydalanish zaruriyatini belgilaydi.

Uzlucksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur jarayon ishtirokchilari uchun zaruriy va etarli shart-sharoitlar yaratib berish bilan bir qatorda, ta'lim oluvchilar faoliyatini takomillashtirish asosida samaradorlikka erishish uchun har bir ta'lim oluvchi haqida ishonchli va asosli axborotlarni to'plash hamda vujudga kelayotgan vaziyatlarni tahlil qilish zarur.

Uzlucksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va samaradorlikka erishishda pedagogik jarayonlarning maqsadini, maqsadga erishish yo'nalishida belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyatini, o'rganiladigan tushunchalarning zaruriyati, ahamiyati va mazmun mohiyatini ta'lim oluvchilarning boshlang'ich tushunchalariga bog'liq holda tushuntirish, o'rganiladigan tushunchalarga nisbatan ta'lim oluvchilar qiziqishini rivojlantirish asosida vaziyatlarga ko'ra ularning faolligini ta'minlash va o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirib borish jarayonida o'qituvchilar tomonidan boshqaruvning **maqsadli-motivlashtirish funksiyasi** amalga oshiriladi.

Uzlucksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish holatini, vaziyatlarga ko'ra ta'lim oluvchilarning faolligi va ular o'rtaсидаги о'заро munosabatlarni, ularning ta'lim olishga bo'lgan moyilliги, qiziqishi va imkoniyatlari, boshlang'ich tushunchalarini aniqlash hamda ularning faolligini ta'minlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, barcha subyektlar uchun qulay bo'lgan o'zaro ta'sir jarayonini, innovatsion ta'limiy muhitni

vujudga keltirish yo'nalishlarida vazifalar belgilanishida pedagog xodimlar tomonidan **oldindan ko'rish-rejalashtirish funksiyasi** amalga oshiriladi.

Oldindan ko'rish-rejalashtirish funksiyasi maqsadli-motivlashtirish funksiyasi uchun boshlang'ich asos sifatida xizmat qilishini inobatga olib aytish mumkinki, mazkur funksiyalar turli yo'nalishlardagi vazifalarni amalga oshirilishi uchun xizmat qilsa-da ularning maqsadi va yo'nalishlari umumiy, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish samaradorligini ta'minlashda subyektlar uchun zaruriy va yetarli shart sharoitlarni yaratib berishdan iborat bo'lib, bu funksiyalar ijtimoiy-psixologik metodlar asosida amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayon subyektlari o'rtasida ijtimoiy-psixologik metodlar shunday munosabatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadiki, bunda ta'lim oluvchilarning bemalol, erkin harakat qilishi, o'zini-o'zi namoyon qilishi, turli vaziyatlarda erkin ishtiroy etishi, mustaqil fikr bildirishi uchun shart-sharoitlar vujudga keladi hamda uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda ijodiy muhit shakllanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish samaradorligini ta'minlash yo'nalishida ta'lim oluvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning mustaqil bajargan ishlari va faoliyatlari uchun rag'batlantirish va har bir ta'lim oluvchining faoliyati natijalarini obyektiv baholash asosida ular uchun muhim ta'limiy muhitni vujudga keltirish yo'nalishida bajariladigan vazifalar pedagog xodimlar tomonidan **tashkiliy-ijrochilik funksiyasini** amalga oshirilishini ifodalaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashda turli xil usullar va metodlardan foydalanish asosida ta'lim oluvchilarning faoliyatini

muntazam nazorat qilib borish va uning natijalarini tahlil qilish, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va xatoliklarni sabablarini aniqlash, mavjud muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur vazifalarni bajarilishi jarayonida pedagog xodimlar tomonidan **nazorat-tashxis funksiyasi** amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda turli noqulay vaziyatlar ham vujudga kelishi mumkin, bunday vaziyatlarda nazorat-tashxis funksiyasi yo'l qo'yilayotgan xatolarni sababini o'z vaqtida aniqlash va ularni tuzatish usullarini belgilash imkoniyatlarini yaratadi. Shuning uchun uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning barcha bosqichlari uchun nazorat-tashxis funksiyasini amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning samaradorligini ta'minlash uchun pedagogik jarayonlar holatini zaruriy, belgilangan darajada ushlab turish, uni yangi sifat darajasiga ko'tarish va mazkur jarayonda yo'l qo'yilayotgan xatoliklarni tuzatish hamda ta'lim oluvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish asosida ularning faolligini ta'minlash yo'nalishidagi vazifalarni bajarilishi jarayonida pedagog xodimlar tomonidan **tartibga solish-muvofiqlashtirish funksiyasi** amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi pedagog xodimlarning faoliyatining mazmun-mohiyati yuqorida keltirilgan funksiyalarni amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Mazkur funksiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan boshqaruv metodlari uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishda qo'llaniladigan ta'sir etish yo'llari va

usullarining majmuini, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi.

Shunday ekan, uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish samaradorligini ta'minlash uchun yuqorida keltirilgan funksiyalarni amalga oshirishda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish mazmun-mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan boshqaruv funksiyalari va metodlaridan foydalanishni nazarda tutishi;
- uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish o'ziga xos integrativ tizim ekanligi;
- uzlusiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi;
- uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish samaradorligi mazkur jarayon subyektlarining bilim, ko'nikma va malakalari va o'zlashtirish ko'rsatkichlari darajasining o'sishi, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviyligini ifodalashi;
- uzlusiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarda amaliyatga tatbiq etilayotgan, ya'ni samaradorligi tekshirilayotgan yangilik va innovatsiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi;
- uzlusiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning samaradorligi subyektlarning ehtiyojlari va manfaatlariga hamda shaxsiy qiziqishlariga bog'liqligi;
- uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda ijodiy muhitni yaratish - motivlashtirish zaruriyatini belgilashi;
- kommunikatsion jarayonlarda pedagogik jarayonlar subyektlarining faolligi hamda axborotlarning yangi va ishonchli bo'lishi zaruriyat;

- uzlusiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda har bir subyekt o'z ijodiy imkoniyatlaridan foydalana olishi uchun shart-sharoitlar yaratishning majburiyligi.

Uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda inobatga olinishi zarur bo'lgan omillar, subyektlarning individual psixologik xususiyatlari, tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari mazkur jarayonda ijodiy muhitni shakllantirish zaruriyatini belgilaydi.

Uzlusiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda ijodiy muhitni shakllantirish subyektlarning erkin ishtirok etishi, mustaqil va erkin fikrashi, o'z fikr va tashabbuslarini namoyon qilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratilishini nazarda tutadi va bu o'z navbatida, boshqaruvning ijtimoiy-psixologik metodlaridan foydalanish zaruriyatini belgilaydi.

Uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida subyektlarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki rag'batlantirish har bir ishtirokchi uchun talablar belgilash bilan birlgilikda zamonaviy talablar darajasida ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Uzlusiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda odatda, pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini takomillashtirish, innovatsion jarayonlarni kuchaytirish, ya'ni subyektlarning innovatsion faoliyatlarini tashkil etish, pedagogik jarayon subyektlarining ijodiy faoliyklarini rivojlantirishda rag'batlantirish usulidan foydalaniladi.

Demak, uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda pedagog xodimlar tomonidan ta'lim oluvchilarda ta'lim olishga qiziqishlar shakllantirish, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va samarali bajarishlariga undash, pedagogik jarayonlarda ularning faolligini

ta'minlash yo'nalishlarida rahbarlik uslublarining turli jihatlaridan foydalanishlarini kuzatish mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda pedagog xodimlar tomonidan qo'llaniladigan uslublarni quyidagi omillarga asosan aniqlash mumkin:

- pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarning mustaqil va erkin fikrashi, o'z fikri, g'oya va tushunchalarini erkin ifodalashi hamda vaziyatlarga ko'ra ularning faol ishtirok etish darajasi;

- ta'lim oluvchilarning ilmiy-metodik mahsulotlar, topshiriqlarni bajarish yo'nalishidagi ko'rsatmalar hamda eng yangi, ilmiy asoslangan ma'lumotlar va axborotlar bilan ta'minlanishi;

- pedagogik jarayonlarda barcha uchun qulay ta'limiy muhitni shakllanishi, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlarini vujudga kelishi;

- o'qituvchilar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llanilayotgan uslublar, ya'ni ta'lim oluvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarda ularning o'ziga xos yondashuvi.

Rahbarlik uslublarini tasniflashda aksariyat mutaxassislar mazkur jarayonning bosh mezoni va tashkiliy tamoyili sifatida yakkaboshchilik bilan kollegiallik nisbatining ustuvorligiga e'tibor berishadi. Shundan kelib chiqib, rahbarlik uslublarining mazmun va mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

1. Avtoritar uslubda o'qituvchilar o'z irodasini ta'lim oluvchilarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqtish, jazolash va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi.

Bu uslub bevosita buyruq va ko'rsatmalar berishga asoslanib, ta'lim oluvchilarni so'zsiz bo'y sunishini nazarda tutadi, ya'ni pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilar erkinligi cheklanadi hamda faqat o'qituvchilar uzluksiz

pedagogik jarayonning yagona subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ta'lif oluvchilarning bevosita va erkin muloqotda bo'lishi chegaralab qo'yiladi. Bunday vaziyatda ta'lif oluvchilarning pedagogik jarayonga munosabatlari, ularning ehtiyojlari va manfaatlari e'tiborga olinmaydi. Bu "ajratib tashla va hukmronlik qil" tamoyiliga asoslangan shafqatsizlarcha uslubdir. Bunday uslub garchi bir-muncha samarali bo'lsa ham, aslida, pedagogik jarayonlarda muxoliflik, norozilik kayfiyatini shakllantiradi. Bunday uslub ta'sirida ta'lif oluvchilar o'z o'quv faoliyatidan qoniqmaydi, uning natijalariga qiziqmaydi va bular o'z navbatida pedagogik jarayonning samaradorligini pasayishiga sabab bo'ladi. Bunda mazkur uslubning turli xil shakli va usullari vujudga keladi:

2. Liberal (erkin ish yuritish) rahbarlik uslubi o'qituvchilarning ta'lif oluvchilarga topshiriq va maslahatlarni tavciyalar ko'rinishida berishi, ta'lif oluvchilarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda o'qituvchilar vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi, pedagogik jarayonlarda ta'lif oluvchilarga keng doirada mustaqillik, to'la erkinlik berish bilan bir qatorda, ularning harakatlariga kam e'tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi. O'z zimmasiga ma'suliyat olishni yoqtirmaydi, kelishuvchanlik asosida faoliyat ko'rsatadi, ya'ni ta'lif oluvchilar bilan o'zaro munosabatlarni buzmaslik uchun ularning barcha talablarini bajaradi. Bu o'z o'rnida pedagogik jarayonlarda tartibsizlik vujudga kelishiga, ta'lif oluvchilarning xatti-harakati va o'quv faoliyati yo'nalishidagi nazoratning sustlashiga, ularning muayyan fanga bo'lgan qiziqishlarining yo'qolishiga olib keladi, shuningdek boshqa pedagogik jarayonlarda ham ta'lif oluvchilar faolligining susayishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu boshqaruv uslubining quyidagi usul va shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- kommunikatsion moyillik - bunda o'qituvchilar ta'lif oluvchilarga turli xil savollarni berishi, o'z fikrlarini bildirishi uchun imkoniyatlar beradi, bu boshqaruvning maslahatli usuli bo'lib, ta'lif oluvchilar tomonidan berilgan takliflar, ularning fikrlari, ular tomonidan bajarilgan topshiriqlarning natijalari o'rganib chiqilishi sababli berilayotgan topshiriqlar ular tomonidan o'z vaqtida bajariladi;

- hamkorlikda qabul qilingan qarorlar asosida boshqaruv - pedagogik jarayonlarda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish usullaridan keng foydalaniladi hamda o'qituvchilar muammoning yechimini topish uchun barcha ta'lif oluvchilarni jalg etadi va bunda muammoni yechish tartibini o'zi belgilaydi, shuningdek, o'zining barcha huquqlari va vakolatlarini saqlab qolgan holda ta'lif oluvchilar tomonidan muammoning yechimi bo'yicha qaror qabul qilinishiga ruxsat beradi.

3. Demokratik uslubda o'qituvchilar pedagogik jarayonning yagona subyekti sifatida faoliyat ko'rsatmaydi, ular o'z faoliyatini ta'lif oluvchilarga tayangan holda va ularning fikrini inobatga olish asosida, ya'ni pedagogik jarayonlarda ta'lif oluvchilarning mustaqil va erkin fikrashi, o'z qobiliyatlarini erkin namoyish etishlari, fikrlarini erkin bildirishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish orqali ularning faolligini ta'minlashga yo'naltiradi. Pedagogik jarayonlarda subyekt-subyekt (o'qituvchi va ta'lif oluvchi) munosabatlari shakllantirish asosida barcha uchun qulay ta'limiy muhitni vujudga keltiriladi. Mazkur uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar ta'lif oluvchilarning o'zaro munosabatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga qulоq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobjiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi.

Uzluksiz ta'lif tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda vaziyatlarga ko'ra boshqaruv uslublaridan oqilona foydalanishda o'qituvchilar

bilan ta'lim oluvchilarda bir-biriga nisbatan ishonch, o'zaro tushunish, do'stona munosabat hamda barcha uchun qulay ta'limiy muhit vujudga keladi. O'qituvchi o'zini pedagogik jarayonning bir ishtirokchisi sifatida tutadi, uning oldida har bir ta'lim oluvchi o'zini erkin his qiladi va mustaqil va erkin fikrlaydi hamda vujudga kelgan tashabbus, g'oya va fikrlarini bemalol ifodalaydi.

Bunday uslubdan foydalanuvchi o'qituvchilar pedagogik jarayonlardagi tashabbuskorlikni rag'batlantiradi, barcha ta'lim oluvchilar bilan teng va samimiyligini munosabatda bo'ladi, o'z mavqeい ustunligini bildirmaydi, hamkorlik uchun qulay vaziyatni yaratadi, ta'lim oluvchilarga erkin ishtirok etish imkonini beradi, ular tomonidan bildirilgan fikrlarga to'g'ri munosabatda bo'ladi hamda turli xil vaziyatlarni inobatga olgan holda unga mos yondashuvlarni amalga oshiradi.

Shuning uchun ham pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchilarning muhim ahamiyat kasb etuvchi sifatlaridan biri turli xil uslublardan foydalana olishi, ya'ni vujudga kelayotgan turli vaziyatlarga ko'ra rahbarlik uslublaridan oqilona foydalana olish ko'nikmasining shakllanganligi hisoblanadi.

Uzlucksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda o'qituvchilar u yoki bu rahbarlik uslubini tanlashda quyidagi qator omillarni hisobga olishi zarur:

- vaziyat (stress, tinch aniqlanmagan). Masalan, vaqt ziq vaziyatlarda avtoritar uslub o'zini oqlaydi;

- topshiriq (murakkabligiga ko'ra). Murakkab topshiriqlarni ta'lim oluvchilarga berishda ularning imkoniyatlari, qobiliyati va boshlang'ich tushunchalarini inobatga olish, topshiriqlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va bajarilish yo'nalishiga ko'ra davra suhbatlari tashkil etish hamda topshiriqlarni ta'lim oluvchilar tomonidan tanlab olinishiga imkoniyatlar yaratilishi kerak. Bunday

vaziyatlarda demokratik (kollegial) uslubdan foydalanish o'ziga xos ahamiyatga ega.

- guruh (uning a'zolarining jinsi, yoshi, qobiliyati va imkoniyatlari). Topshiriqlarning bajarilishiga qiziquvchi, o'zaro inoq (topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashuvni tatbiq etish imkoniyatlariiga ega, izlanuvchan) guruhlar uchun demokratik yoki liberal uslubni tanlash maqsadga muvofiq.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda rahbarlik uslublaridan foydalanish ko'p darajali asoslarni qamrab oluvchi vaziyatlarga ko'ra o'zgaruvchan xususiyatlarga ega bo'ladi. Mazkur xususiyatlar uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarda vujudga keluvchi tez o'zgaruvchan vaziyatlarga ko'ra rahbarlik uslublarini o'zgartirib borish, pedagogik jarayon subyektlari faolligi, bilim, ko'nikma va malakalari darajasi hamda ehtiyojlarining rivojlanishi, shaxsiy manfaatlar bilan umumiylar manfaatlarning uyg'unlashuvi va boshqa sabablar orqali ifodalanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asoslarda samarali tashkil etish va boshqarish, belgilangan maqsadlarga erishish subyektlarning birgalikdagi samarali faoliyati, ya'ni hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishni hamda hamkorlikdagi faoliyatni ma'lum bir izchillikda muvofiqlashtirish asosida takomillashtirishni nazarda tutadi.

II BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH, SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

2.1. Uzluksiz ta'lrim tizimidagi mavjud ziddiyatlar va pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish omillari

Shaxs kelajagini belgilash va muhim poydevor yaratishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishda uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarning alohida o'rni bor, ya'ni maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maztablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ta'lim oluvchilarda har tomonlama barkamollik sifatlari tarbiyalanadi. Barkamol shaxsni shakllantirishda pedagogik tizimning ingtegrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni tanlash hamda mazkur tizimni tadqiq etish va takomillashtirishga tizimli, vaziyatli, ijodiy, refleksiv, muvofiqlashtirilgan, etnik, shaxs-faoliyat, milliy-hududiy va innovatsion yondashuv kabi yondashuv texnologiyalarini qo'llash va ularidan mazmun-mohiyatiga ko'ra to'g'ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, "Ta'lim - imkoniyatlar tengligini ta'minlaydigan buyuk mezon. U jamiyat aql-zakovatining yuksalishi, raqobatbardoshlik-ning kuchayishi va yutuqlar ko'payishining muhim omili vazifasini o'taydi"¹.

Pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash va samaradorligini oshirishning metodologik asoslari sifatida mazkur yondashuv texnologiyalarini ko'rib chiqish vujudga kelayotgan vaziyatlarga bog'liq holda pedagogik jarayonlar

¹ Xanuxiko Kuroda. Yuksak bilimli va intellektual rivojijangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqoror taraqqiyetish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti: Xalqaro konferensiya materiallari. – T.: O'zbekiston, 2012. – B.19.

samaradorligini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Bugungi kunda pedagogik jarayon sub'yektlari uchun qo'yilayotgan talablar ta'lif standartlari va o'quv dasturlarini unifikatsiya va modernizatsiya qilish; pedagogik jarayonni va sub'yektlar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirishda pedagogik tizim komponentlarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi, integrativ tabiati kabi qator o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; mazkur tizimda innovatsion va hamkorlikdagi faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ya'ni mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlash yo'nalishida maxsus kurslar, o'quv-seminarlari tashkil etish va o'quv-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi, oila, mahalla, jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ya'ni hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish va takomillashtirish kabi qator yo'nalishlar bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Shuningdek, pedagogik jarayonlarning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish pedagogik jarayonlarda o'rganiladigan tushunchalarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda axborotlarning yangiligi va ishonchlilagini ta'minlash zaruriyatini belgilaydi.

Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirishda, shuningdek, pedagogik tizim komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashning zaruriyatini asoslashda quyidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etish zarur:

- ta'lim tizimiga yangiliklarni tatbiq etishning rivojlanish darajasi bilan ta'lim-tarbiya ishtirokchilarining bilim olishga

bo'lgan ehtiyojlari hamda kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish darajasi va ilmiy-metodik ta'minot o'rtaсидаги номувоғиқлик;

- pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash asosida ularning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlarning ilmiy asoslanmaganligi;

- uzlusiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning mazmunan izchilligi va uzviyilagini ta'minlashga xizmat qiluvchi korporativ yondashuvlarni amaliyatga tatbiq etish texnologiyalarining ishlab chiqilmaganligi;

- ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi uzlusiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi;

- ta'lim muassasalarida pedagog xodimlarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga mo'ljallangan uzlusiz malaka oshirish xonalarini zamonaviy axborot texnologiyalari va ilmiy metodik maxsulotlar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi va h.k.

Pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchilar belgilangan asosiy maqsad yo'nalishida pedagogik jarayonlarni strategik rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, ta'lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va ular asosida pedagogik jarayon subyektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etishi zarur hisoblanadi.

Pedagogik jarayonlar samaradorligi mazkur jarayonning asosini tashkil etuvchi ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviyligi hisoblanadi, chunki samaradorligi tekshirilayotgan yangiliklar va tatbiq etilayotgan innovatsiyalar hamda tashkil etilayotgan innovatsion jarayon


aniq bir maqsadga, ya'ni ta'lif-tarbiya jarayoni subyektlarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Uzluksiz ta'lif tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi ta'lif-tarbiya jarayoni subyektlarining bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari darajasining o'sishi bilan belgilanadi.

Shunday ekan, uzluksiz ta'lif tizimi muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi tatbiq etilayotgan yangiliklar asosida ta'lif oluvchilarining olgan bilimlari, zamonaviy texnika va AKTni o'rGANISHI, intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasi hamda o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek, pedagogik mahorati va kasbiy qobiliyatlarining rivojlanish darajalari o'sishini belgilaydi. Uzluksiz ta'lif tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar (1-rasm), vaziyatlarga ko'ra mazkur jarayonni ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, innovatsion metodlardan to'g'ri foydalanish, mazkur jarayon komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorlik xususiyatlarini, innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, ilmiy-metodik ta'minotini yaxshilash, ta'lif menejmenti tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqaruv subyektlari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida belgilashni ko'rsatadi.

Uzluksiz ta'lif tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash va rivojlantirish uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zarurligini belgilaydi:

- uzluksiz ta'lif tizimidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoniga innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish;

**Uzluksiz ta'lrim
tizimida
tashkil
etiladigan va
boshqariladiga
n pedagogik
jarayonlar
samaradorligi
ga ta'sir
ko'rsatuvchi
omillar**



1-rasm. Uzluksiz ta'lrim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

- mazkur tizimdagi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tizimning o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, murakkab pedagogik tizimga xos xususiyatlarni inobatga olish;
- pedagogik jarayonlarda subyektlarning o'zaro munosabatlari hamda tarbiyaviy munosabatlarni ilmiy asoslangan tamoyillar asosida shakllantirish;
- uzluksiz ta'lrim tizimidagi pedagogik jarayonlarda ta'lrim oluvchilarining boshlang'ich tushunchalari va o'zi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;

- pedagogik jarayonlarni oldindan loyihalashtirish hamda subyektlar faoliyatini rejalashtirish;
- pedagogik jarayonlarda innovatsion yondashuvlarning natijalari bo'yicha qayta aloqani yo'lga qo'yish.
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich tushunchalari va tayyorgarlik darajasini aniqlash, innovatsion jarayonlarga ularni oldindan tayyorlash va ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash;
- uzuksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayon subyektlari hisoblangan ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ehtiyoji va innovatsiyalarga moyilligini aniqlash va motivlashtirish;

- pedagogik jarayonlarga yangiliklarni tatbiq etish va subyektlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- axborotlar to'plash, ularni tahlil qilish va obyektiv baholash asosida o'zgaruvchan vaziyatlarga ko'ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish.

Shuningdek, uzuksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar muvaffaqiyatini ta'minlashda quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini inobatga olish zarur:

- maqsadiy samaradorlik - bu pedagogik jarayonlar subyektlari salohiyati, imkoniyatlari va mavjud imkoniyatlarning belgilangan maqsadlarga mos kelish darajasini ifodalovchi xususiyatlar;
- ijtimoiy-psixologik samaradorlik - bu pedagogik jarayonlardagi ta'limiy muhitning holati tavsifi bo'lib, subyektlar ehtiyojlarining rivojlanishi, ularning yaratilgan shart-sharoitlardan va o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilish darajasi;
- ta'minot samaradorligi - erishilayotgan natijalarning ilmiy-metodik ta'minotga bog'liqligi;

- texnologik samaradorlik - subyektlar asosiy funksiyalarining amalga oshirilish darajasi, shuningdek, subyektlar faolligini rivojlantirish samaradorligi.

Mazkur shartlarni inobatga olgan holda uzlusiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, samaradorligini ta'minlash, belgilangan maqsadlarga erishish, innovations jarayonlarni tashkil etish va natijaviylikka erishishda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, obyektiv baholash va muntazam rag'batlantirib borish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

2.2. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov demokratik, huquqiy jamiyat barpo etishning asosiy tamoyillarini shakllantirar ekan, davlatning ustuvor tamoyillaridan biri sifatida uzlusiz ta'lim tizimini rivojlantirishni belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va vazirliklarning ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risidagi farmon va qarorlari ta'limni isloh qilishning ilmiy-nazariy, hamda qonuniy asoslari bo'lib, "... ta'lim-tarbiya ong mahsuli, ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni tafakkurni o'zgartirmasdan esa - ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi", - deb Prezidentimiz islohotlar mazmunini izohlab berdi. Shuningdek, mustaqil O'zbekiston o'zining bosh maqsadi "Huquqiy, demokratik tamoyillarga asoslangan, fuqarolik

jamiyati" asoslarini yaratish yo'lida islohotlarni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy strukturasini tubdan yangilashga qaratdi.

Hozirgi davrda ushbu amallar o'z navbatida buyuk kelajakning asosi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida ham chuqur va maqsadli islohotlarni amalgalashuvning zaruratga aylantirdi. Shuningdek, ta'limni insonparvarlashtirish va ta'lim mazmunining mohiyatini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvini maydonga olib chiqdi. Bu yondashuv markazida shaxs turadi. Bunday yondashuv ta'lim mazmunini erkin tanlash imkoniyatini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalgalashuvning jarayonida shaxsning ta'limiy, ma'naviy, madaniy va hayotiy talablari qondiriladi. Eng muhim, shaxsga nisbatan insonparvarlik munosabati namoyon bo'ladi, madaniy-ta'limiy sharoitda o'qish individualligi va mustaqil harakat qila olish imkoniyati shakllanadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish - bu pedagogika fanining yo'nalishi hisoblanib, tadqiqot qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi, ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida ta'lim maqsadlariga samarali erishishning optimal yo'llari va vositalaridir.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida ta'lim-tarbiya jarayonida ko'plab yondashuvlar mavjud. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash texnologiyalarini xarakteri ana shu yondashuvlardan kelib chiqadi.

Tizimli yondashuv texnologiyasi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashni pedagogika fanida tizimli yondashuv texnologiyasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday yondashuvning joriy etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv texnologiyasida ta'lim muassasalarida, xususan, uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar ahamiyat kasb etuvchi yaxlit

tizim sifatida, ya'ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqiladi.

Pedagogik jarayonlar samaradorligini o'rganishda alohida xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi aloqalar hamda o'zaro bog'liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda pedagogik jarayonlarning aloqalari va bog'liqligining mazmun va mohiyatiga ko'ra ularni bir butun, ya'ni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi.

Pedagogik jarayonlar samaradorligini o'rganishda tizimli yondashuv texnologiyasi o'ziga xos yaxlitlik, umumiylit, universallik, differensiallik kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan texnologiyalar, ya'ni tadqiqotning integratsion texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Universal tushunchalar apparati, abstraktsiyaning yuqori darajasi, asosiy tamoyillarning integrativ xususiyatlari - subyektlarning turli sohalar bo'yicha tushunchalari, fikrashi va dunyoqarashini o'rganishning samarali usuli sifatida tizimli yondashuv texnologiyasini qo'llash imkoniyatini yaratadi. "Tizim" - tizimli yondashuv texnologiyasining asosiy tushunchasi bo'lib, u aloqa, munosabatlar, integratsiya, yaxlitlik, tashkil etuvchi qismlar kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Tizimning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, o'zaro ta'sir etuvchi komponentlarining majmui yaxlit obyektni tashkil etadi.

Avval ham ta'kidlanganidek, pedagogikada "tizim" tushunchasi juda keng qo'llaniladi, masalan, ta'lim tizimi, tarbiya tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va metodlari tizimi va hokazo. Ijtimoiy tizimning turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim - insonlarga va yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog'liq bo'lgan tarkibiy qismlar majmuidan iborat bo'ladi. Pedagogikada tizimli yondashuv

texnologiyasi yo'nalishida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, tizimlilik, yaxlitlilik - bunday shakldagi tizimni komponentlar, o'zaro ta'sir etuvchi qismlar va bo'g'lnarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi tashkil etadi va ularning o'zaro birikishi funksional vazifalarni amalga oshirish va rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, tizimni tashkil etuvchi omillardan biri maqsad bo'lib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Maqsadga erishishda tizim va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi. Uchinchidan, pedagogik tizim uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar majmuini ifodalab, uning o'zgarishi ichki ziddiyatlarga bog'liq bo'ladi. To'rtinchidan, pedagogik tizim ochiq bo'lganligi sababli tashqi muhit bilan ko'pgina kommunikatsiyalar orqali bog'liq bo'ladi. Tashqi muhit va mavjud munosabatlar pedagogik tizimning harakatlanishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Beshinchidan, pedagogik tizimga axborotlarning kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim tarkibiy qismlarining o'zaro va butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqa qilish uslublari sifatida namoyon bo'ladi.

Manbalarga ko'ra mamlakatimizda va xorijda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning ilmiy asoslari vujudga kelishiga ko'ra o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib - bu tizimli yondashuv texnologiyasining rivojlanish jarayonidir. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuv texnologiyasining barcha asoslari umumnazariy, umumboshqaruvi, umumtexnologik, umumtizimlilik yondashuv texnologiyalari bo'yicha olib borilgan izlanishlarning natijalariga asoslanadi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi, olim, rahbar yoki pedagog har bir hodisa va voqeani, har bir obyektni hamda o'z faoliyatini tizim sifatida hisoblab, tizimli yondashuv texnologiyasi tamoyillarini qo'llashi zarur. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ijobjiy

natijalarga erishish uchun pedagog xodimlar va rahbarlarning asosiy vazifasi jamoada zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh kichik mutaxassislar tayyorlash uchun pedagogik jarayonlarni yaxlit tizim sifatida rivojlantirish hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ularni tashkil etish va boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo'lishi kerak. Pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuv texnologiyasining mazmun va mohiyatini quyidagi tamoyillar asosida ko'rsatishimiz mumkin: uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayon ishtirokchilari hisoblangan o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar mazkur jarayon subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatishi, ya'ni pedagogik jarayonlarda **subyekt-subyekt munosabatlарining qaror topishi**; pedagogik jarayon subyektlari faoliyatining **maqsadga yo'naltirilganligi**, izchilligi va o'zaro bog'liqligi; **majmuaviylilik** - pedagogik jarayonlar o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi; **integrativlik** - harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi; **o'zaro bog'liqlik** - pedagogik jarayonlar alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi; **kommunikativlik** - pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlar samaradorligi, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonlari natijaviylici subyektlarning shaxsiy rivojlanishi va tayyorgarligining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqlik darajasini hamda uzluksiz ta'lim tizimi faoliyatida vujudga kelayotgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi muammolarning ko'pqirraliligi va murakkabligi, nafaqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni sifat jihatdan o'zgartirishni nazarda tutadi,

balki uning mazmunini takomillashtirish zaruriyatini ham belgilaydi.

Ta'lim muassasasini isloh qilish jarayonlari odatda lokal, alohida, qismlar bo'yicha, ayrim o'qituvchilarning ijodiy-pedagogik faoliyati doirasida o'zaro bog'liq bo'limgan yangiliklardan boshlanadi. So'ngra islohotlar sohalar, tarmoqlar, bo'g'in va qismlarni qamrab oladi. Islohotlar jarayoni to'la obyektni, ya'ni ta'lim muassasasini to'la qamrab olgan davrda barcha o'quvchilar, o'qituvchilar, rahbarlar ishtirok etadilar hamda rivojlanishga, ijobiy natijalarga erishishga yo'naltirilgan yangi maqsadlarni va tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan yangi turdag'i ta'lim muassasasini yaratish zaruriyati va imkoniyati vujudga keladi. Bunday hollarda ta'lim muassasasi alohida bir ijtimoiy organizm, ijtimoiy tizim sifatida rivojlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan, oldindan yaratilgan, mavjud bo'lgan salohiyatlar asosidagi faoliyatlar jarayoni asosiy (ta'lim-tarbiyaviy) va yordamchi (ta'minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlarni o'z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonlari mazkur faoliyatlar bilan bog'liq holda, salohiyatni boyitish, kengaytirish asosida yanada yangi sifatlarga, yuqori va samarali natijalarga erishishga yo'naltirilgan va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishish va rivojlantirish uchun odatda belgilangan mezonlarni almashtirish, asosiy va yordamchi jarayonlarni yoki faoliyat jarayonini takomillashtirish zarur bo'ladi.

Faoliyatning muvaffaqiyatsizliklari va natjalarning zamонавији таъбларга мос келмайотганлиги тоғ'рисидаги ма'lumotlarni olib, тизим mavjud bo'lgan muammolarni o'z salohiyati darajasida eski usullar asosida hal qilishga harakat qiladi. Tanglikni bartaraf etish tizimni qayta tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Pedagogik jarayonlar bir butun organizm sifatida ichki o'zgarishlarga asosan rivojlanadi va o'zaro aloqalar tizimi barqarorlashadi.

Maqsadga erishishdagi vazifalar, turli xil muammolarni hal etish zamonaviy usullar yordamida amalga oshiriladi, natijalar zamon talablariga moslashadi va pedagogik tizim samaradorligi ta'minlanadi. Ta'lim muassasalaridagi mavjud muammolarni hal qilish yo'nalihidagi yondashuv texnologiyalari, an'analar, taomillar, belgilangan tartib va me'yorlarni o'z ichiga oluvchi ta'lim muassasasi madaniyatni pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi falsafasi va madaniyatini (boshqaruv, pedagogik, o'quv, ma'naviy) o'zaro moslashtirish juda zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish va boshqarish uchun rahbarlar va jamoaning boshqa vakillaridan iborat ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi, ya'ni ichki nazorat tashkil etiladi. Ta'lim muassasasi jamoasi – bu murakkab tizim bo'lib, o'quv va mehnat faoliyatini qoniqarli tashkil etish, shuningdek, ta'lim muassasasi faoliyatining natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi rasmiy va norasmiy, gorizontal va vertikal, shaxslararo va mehnat faoliyatiga oid aloqalar hamda munosabatlarni qamrab oladi. Ta'lim muassasasi boshqaruv faoliyatining tizimli obyekti sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: zaruriyat, imkoniyat, muassasaning ko'rsatkichlari va o'z qobiliyatini baholash mezonlarini hisobga olish asosidagi rivojlanish yo'nalihi; uning salohiyati, funksional imkoniyatlari, individualligi va madaniyligi; muassasa joylashgan hudud mentaliteti; uning yaxlit pedagogik tizimi; ilmiy-metodik mahsulotlar va vositalar bilan ta'minlanish imkoniyatlari; ichki imkoniyatlari va tashqi muhit bilan munosabatlari; pedagogik va ta'lim muassasasi jamoalarining rivojlanishi, shuningdek, ta'lim muassasasining ichki boshqaruv tizimi va uning rivojlanishi kabilar.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarning umumiyl modelini o'zgartirishda ta'lim muassasasi o'qituvchilar, o'quvchilarning imkoniyatlari, boshlang'ich

tushunchalarini va ishonchlariga asoslanish kerak, chunki yangilangan model zamонавиј талаблар дарајасида о'кувчиларинг о'згарувчан та'лим-тарбијавиј, ма'навиј етийојларини қондира олиши, юқори дарајада ко'никма ва малақаларга ега бо'лган о'қитувчиларинг тажрибалирни қо'llash hamda ularning ijодиј salohiyatini rivojlantirishga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishi zarur bo'lib, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda quyidagi asosiy tamoyillarni inobatga olish lozim:

- pedagogik jarayonlarni samarali rivojlantirish yo'llari tasodifiy holda va taxminiy belgilanganda ularning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar subyektlarning qobiliyatlariga, pedagoglarning qulay vaziyatlarni ko'ra olishi va ularni qo'lidan chiqarmasligiga bog'liqligi;

- tizimli obyekt sifatida pedagogik jarayonlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun uni tashkil etuvchi barcha komponentlarning rivojlanish sur'atlarini, subyektlar munosabatlari va faoliyati integratsiyasini ta'minlash hamda muvofiqlashtirishning zarurligi;

- pedagogik jarayonlarning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar mavjud omillarga asoslangan holda professor-o'qituvchilarning kelajakni ko'ra olish va rivojlanish imkoniyatlarini oldindan aniqlay olish mahoratlariga bog'liqligi;

- murakkab tuzilishga ega bo'лган pedagogik jarayonlarning rivojantirishga bo'лган eтийојлар ва imkoniyatlarni, subyektlarning qobiliyatları va boshlang'ich tushunchalarini aniqlamasdan pedagogik jarayonlarni rivojlantirish yo'nalishlarini majburan belgilashni mumkin emasligi;

- kuchli, majburiy va keng qamrovli ta'sir ko'rsatish usullari asosida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash imkoniyatining mavjud emasligi;

- tashkil etuvchi qismlar va bo'g'inlar bo'yicha aniq belgilangan tartibda (lokal) ta'sir ko'rsatish pedagogik

jarayonlarning samarali rivojlanishida yaxshi natijalarga erishishga asos sifatida xizmat qilishi.

Refleksiv yondashuv texnologiyasi. Pedagogik jarayonlarda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ularning mustaqil va samarali fikrlashining muhim mexanizmi sifatida refleksiv yondashuv texnologiyasi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Refleksiv yondashuv texnologiyasida o'rganilayotgan tushunchalarni keng tizim kontekstida tushuntirish jarayonlarini alohida tashkil etish (vujudga kelayotgan vaziyatlarni va subyektlar xattiharakatlarini baholash, belgilangan vazifalarni samarali bajarish usullari va yo'nalishlarini aniqlash), subyektlarning o'zini-o'zi tahlil qilishi, o'z tushunchalari hamda xattiharakatlarini faol o'ylab ko'rishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaxs-faoliyat yondashuv texnologiyasi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda shaxs-faoliyat yondashuv texnologiyasi ham zarur hisoblanib, pedagogik jarayonlarda subyektlar faolligini ta'minlash va aniq maqsadlarga ko'ra belgilangan vazifalarni bajarishga subyektlarni motivlashtirish yo'nalishi sifatida vujudga keladi. Shaxs-faoliyat yondashuv texnologiyasida shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi, chunki bu yondashuv texnologiyasi asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'quvchi-o'quvchilar subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi va o'z navbatida, o'quvchi-o'quvchi shaxsining subyekt sifatida rivojlanishi uning faolligi, mustaqil, erkin, tanqidiy, tahliliy va samarali fikrlashining rivojlanishi orqali aniqlanadi.

Vaziyatli yondashuv texnologiyasi. Pedagogik jarayonlar va subyektlar faoliyatining tez o'zgaruvchan xususiyatlari yana bir metodologik yondashuvni joriy etishga e'tibor qaratish zaruriyatini belgilaydi, ya'ni boshqariluvchi obyektning ma'lum bir sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma'qul uslubini qo'llashni talab qiladi.

Bu o'z navbatida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlariga vaziyatlari yondashuv texnologiyasini tatbiq etishni nazarda tutadi.

Vaziyatlari yondashuv texnologiyasi - pedagogik jarayon samaradorligini aniq vaziyatlarga ko'ra aniqlashni ko'zda tutadi. Vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Vaziyatlari yondashuv texnologiyasida boshqariluvchi obyekt hisoblangan pedagogik jarayonning aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab subyektlar (o'quvchi-o'quvchilar) faoliyatini muvofiqlashtirish mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Vaziyatlari yondashuv texnologiyasi jarayonida quyidagilarni inobatga olish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi:

- pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillarni aniqlash maqsadida pedagogik jarayonda vujudga kelayotgan vaziyatlarni o'rghanish, tahlil qilish va obyektiv baholash;

- turli pedagogik vaziyatlarda erishish mumkin bo'lgan natijalarning samaradorligini oldindan aniqlash;

- pedagogik jarayonlarni va subyektlar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishni rejalashtirishda mazkur jarayonga tasir ko'rsatuvchi omillarni hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish asosida subyektlar faolligini ta'minlash yo'llarini belgilash.

Muvofiqlashtirilgan yondashuv texnologiyasi. Pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish, ko'zlangan maqsadga erishishda subyektlar faolligini ta'minlashga jalg etiladigan sarf-xarajatlarning me'yordan ortmasligini ta'minlovchi, subyektlarning imkoniyati, qobiliyati va boshlang'ich tushunchalariga hamda mavjud vaziyatlar va shart-sharoitlarga mos keluvchi, eng qulay bo'lgan hamda pedagogik jarayon va uning tarkibiy tuzilishini qayta tashkil eta oladigan tizimni vujudga keltirish muvofiqlashtirilgan yondashuv texnologiyasini joriy etishdir. Sodda qilib


aytganimizda, muvofiqlashtirilgan yondashuv texnologiyasini amaliyatga tatbiq etilishi natijasida subyektlarning faolligini hamda pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlash uchun sarf etiladigan mehnat va vaqt tejaladi, shuningdek, pedagogik jarayonlarda bir tomonlamalilik (subyekt sifatida faqat o'qituvchining o'zi faoliyat ko'rsatishi) bartaraf etiladi.

Natijalar bo'yicha boshqaruв texnologiyasining asosiy g'oyasi shundan iboratki, hech bir jarayon, jumladan, pedagogik jarayon ham o'zi-o'zicha hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Pedagogik jarayonlarning ahamiyati uning natijaviyilda o'z ifodasini topadi va uning natijaviyligi subyektlar (o'quvchi-o'quvchilar)ning faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida turli rivojlanishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Natijalar bo'yicha boshqaruв tushunchasi rivojlanish tizimi sifatida amal qiladi va pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash asosida belgilangan natijalarga erishish mumkin. Mazkur jarayonda belgilangan vazifalar va o'rganiladigan tushunchalarning mazmun-mohiyatini har bir ishtirokchiga tushuntirish orqali subyektlarning o'zini-o'zi boshqarishi hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondashuv texnologiyasini joriy etishi ta'minlanadi.

Yuqoridaagi keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olib, ularni shartli ravishda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari tizimi (2-rasm) sifatida tasvirlash mumkin.

Chunki pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda keltirilgan texnologiyalarini hech qaysi biri mustaqil ravishda ixtiyoriy vaziyatlarda universallikka da'vogar bo'la olmaydi. Shuning uchun ulardan ixtiyoriy pedagogik jarayonda o'zaro bog'liq holda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



2-rasm. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari

2.3. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish jarayoni modeli

Uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish asosida takomillashtirishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan eng samarali metodlar va uning mazmun-mohiyati pedagog xodimlar o'z faoliyatida afzal bilgan va ilmiy asoslangan barcha usullardan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda bir tomondan pedagoglar bilan ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyati mazmuni, boshqa tomondan bu tizimning o'zi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jarayonlarda pedagoglar bilan ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirish o'zaro ta'sir jarayonida amalga oshiriladi va mazkur jarayonda o'zaro ta'sir etish madaniyati shakllanib, rivojlanib boradi. O'zaro ta'sir etish madaniyatining rivojlanishi ta'limiy muhitda subyektlarning hamkorlikdagi faoliyati samaradorligi hamda innovatsion o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonlarda innovatsiyalar o'zaro ta'sir madaniyatining eng muhim va asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lib, ular innovatsion jarayonlarda nafaqat o'zining tavsifi va xususiyatlari bilan, balki pedagogik jarayonlarni takomillashtirishning eng muhim omillari sifatida ham belgilanadi. Bu o'z navbatida innovatsiyalarning sifatini va ahamiyatililagini belgilash bilan bir qatorda, vaziyatlarga ko'ra ularni tatbiq etish vaqtlarini ham oldindan belgilaydi. O'zaro ta'sir madaniyati umumiy ijtimoiy madaniyatning tashkil etuvchi komponenti sifatida ma'lum bir ijtimoiy madaniyat kontekstida tushunchalar, shaxslararo munosabatlar va o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi va unda qator kattaliklar - an'anaviylik,

dolzarblik darajasi, motivlashtirish tizimi; rahbarlik uslublari, tashkiliy muhitning sifati; kommunikatsiyalar; personalni boshqarish; boshqaruv strategiyasi; o'qituvchi-murabbiylar va ta'lif oluvchilarning kasbiy hamda shaxsiy madaniyati rasmiy jihatdan namoyon bo'ladi.

O'zaro ta'sir madaniyatining an'anaviyligi milliy-tarixiy ijtimoiy madaniyat bilan pedagogikaning o'zaro bog'liqligiga asoslanuvchi umumtaraqqiy va milliy ta'lif-tarbiya madaniyatining pedagogik tizimda barqaror namoyon bo'lishi, uning dolzarbliji ta'lifi muhitda qulay vaziyatlarning vujudga kelishi sifatida va ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelishi bilan belgilanadi.

Ta'lifi muhitning sifati uning holatining milliy-madaniy namunalar bilan mos kelishini hamda pedagogik jarayonning samaradorlik darajasi va subyektlar (o'qituvchi va ta'lif oluvchilar)ning imkoniyat darajasini belgilaydi. Ya'ni, vujudga kelayotgan vaziyatlarni ta'lifi muhitning asosiy tashkil etuvchi elementlari bilan muvofiqlashtirish o'zaro ta'sir madaniyatining asosiy ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan o'zaro ta'sir madaniyatining barcha xususiyatlari pedagogik jarayonning rivojlanish darajasini ko'rsatadi va pedagogik jarayon subyektlarining innovatsiyalarga tayyorgarligi ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Bu o'z navbatida uzliksiz ta'lif tizimi muassasalari pedagoglari: innovatsiyalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyati va o'z ishiga bo'lgan qiziqishini hayotiy ahamiyatga ega deb bilishi; ijodiy va kasbiy imkoniyatlarga ega bo'lishi; chet tillarini, kompyuter texnologiyalarini va menejment asoslarini bilishi; o'z kasbiy mahorati darajasini tanqidiy baholash imkoniyatiga ega bo'lishi; ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda "inson omillari" va innovatsion faoliyat zaruriyatini inobatga olishi zarurligini ifodalaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoni subyektlarining turli ta'sir ko'rsatish vositalari majmuini pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalari sifatida ko'rsatish mumkin. Chunki pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalari bir tomondan ta'lim vositalari (o'quv, dasturiy, informatsion, didaktik, tajribaviy-tashxis va h.k.) majmui hisoblansa, ikkinchi tomondan, u ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshiruvchi texnologik mexanizm hisoblanadi.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalarining nazariy-metodologik asoslari pedagogik jarayonlarning yangi shaklini vujudga keltiruvchi, ta'limning tarkibiy tuzilishining sifatlarini belgilovchi yangi g'oyalar hisoblanadi. Shunga ko'ra, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari o'qituvchilarining pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi vositalarini tavsiflovchi integrativ xususiyatlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: innovatsion tartibda faoliyat ko'rsatishni tashkil etishning umumiy tamoyillari; pedagogik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan g'oyalarning mavjudligi; ijtimoiy organizm sifatida jamoani rivojlantirish va ta'lim oluvchi - ixtirochilar jamoasini vujudga keltirish bo'yicha tashkiliy-metodik faoliyat; yangi tarkibiy tuzilishga ega va mazmunan rivojlantirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish; pedagogik jarayon subyektlarining ijodiy qobiliyatlarini psixologik-pedagogik jihatdan rivojlantirish; pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda subyektlarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish; yagona ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish va rivojlantirish uchun o'zaro birikkan ta'lim oluvchi, o'qituvchi va ota-onalarning hamkorligini vujudga keltirish.

Bunday hollarda uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari o'qituvchilari pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalari bilan bir qatorda boshqaruvchi, o'qituvchi va tadqiqotchi funksiyalarini ham bajarishi zarur. Chunki pedagogik jarayonlarni takomillashtirish asosida ko'zlangan natijalarga erishishda, eng avvalo, pedagogik jarayonlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni o'rghanish va tahlil qilish va ularni bartaraf etishda bajarilishi zarur bo'lgan vazifalarni, maqsadni aniqlash, shuningdek, pedagogik jarayon subyektlaridan biri hisoblanayotgan ta'lim oluvchilarining imkoniyati va ehtiyojlarini inobatga olish zarur.

Pedagogik jarayonning sifati va samaradorligi subyektlarning faoliyatiga qay darajada bog'liq bo'lsa, pedagogik jarayonlarni takomillashtirish asosida belgilangan maqsadlarga va yuqori natijalarga erishish ularning innovatsion faoliyati hamda innovatsion jarayonlarni tashkil etish qobiliyatlariga shu darajada bog'liq bo'ladi.

Bu o'z navbatida bugungi kunda o'qituvchilar uzluksiz innovatsion izlanishda bo'lishi, fikrashi, o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirishi, shuningdek, ta'lim oluvchilarda ham innovatik g'oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko'rsatishi zarurligini ko'rsatadi. Chunki pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda mazmun mohiyatiga ko'ra kiritilayotgan yangiliklar modernizatsiya, unifikatsiya, faoliyatni takomillashtirish, shaklan o'zgartirish, rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan modifikatsion innovatsiyalardan iborat bo'lib, pedagogik jarayon subyektlaridan biri hisoblanayotgan ta'lim oluvchilarining faoliyati, ya'ni faoliigi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bu pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va samaradorligini ta'minlashda eng avvalo, yangiliklarni pedagogik jarayonlarning qaysi bo'g'iniga tegishli ekanligini inobatga olish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda innovatsiyalarni pedagogik jarayon subyektlarining harakatlanishi va faolligini ta'minlovchi hamda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy, sifatiy o'zgarishlar jarayonini vujudga keltiruvchi vosita sifatida belgilash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, innovatsiya eskilikning yangilik bilan o'zaro o'rinnal mashinishini ta'minlovchi vosita deb aytishimiz mumkin.

Innovatsiya tushunchasi tadqiqotlarda "yangilik kiritish" tushunchasi sifatida ko'rib chiqiladi, "innovatsion jarayon" tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o'zlashtirish hamda ta'lim muassasasi amaliyotida samarali qo'llash jarayoni sifatida ifodalanadi. Demak, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda innovatsiya (yangilik kiritish) - maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar vositasi, innovatsion jarayon - pedagogik jarayonlarga yoki pedagogik faoliyatga o'zgartirishlar (yangilik) kiritish vositasi deb aytishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha, bu jarayonda quyidagi qator vazifalar pedagogik jarayonlarni takomillashtirish, yangiliklar kiritishni amalga oshirishda pedagogik innovatsiyalarni samaradorligining asosiy shartlari hisoblanadi:

- ta'lim muassasasi jamoasi uchun yangilik kiritishning dolzarbligi mavjud muammolarni uzil-kesil hal qilish va pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashning asosiy omillari sifatida belgilanishi;
- tanlangan innovatsion vositalarni ta'lim muassasasining imkoniyatlariga mos kelishi;
- innovatsiyalarning to'la ilmiy asoslanganligi;
- innovatsion jarayonlarning ahamiyatliligi va tizimliligi;
- yangilik yaratuvchi va undan foydalanuvchilarining shaxsiy-individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- innovatsiyalarning ahamiyatini anglash har bir subyektning yuqori darajadagi mas'uliyati hamda javobgarligini ifodalashi;

- innovatsion jarayonlarda tavakkalchilikni minimal darajada bo'lishi uchun etarli shart-sharoitlar yaratish zaruriyati;

- tavakkalchilik darajasini tushunish va ularning asoslanganligi zaruriyati;

- ta'lif mazmunida, pedagogik loyihalarda o'zgartirishlar hamda rivojlanish tamoyillarining o'z ifodasini topishi.

Uzluksiz ta'lif tizimi muassasalarida pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirishga obyektiv va subyektiv omillar sabab bo'ladi.

Obyektiv omillarga davlatning yangi ta'lif siyosati, ta'lif sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, ta'lif muassasalarining innovatsion faoliyat yo'nalishidagi tajribalarini kiritishimiz mumkin.

Subyektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj hamda ta'lif muassasalari faoliyatining rivojlanish jarayoni, o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini va ta'lif muassasasi ilmiy-pedagogik salohiyatining rivojlanishi.

Ta'lif muassasalarida asosiy o'zgarishlar va innovatsion jarayonlarni tashkil etish asosiy maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi va o'z navbatida mazkur maqsadlarga erishishda qator vazifalarni bajarilish zaruriyatini belgilaydi:

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos, bilimli va qobiliyatli bitiruvchilar tayyorlash modelini amaliyatga tatbiq etishga asoslanish (ta'lif mazmunini yangilash);

- pedagogik jarayonlarda ta'lif oluvchilar faolligini ta'minlash, raqobatbardosh, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish (ta'lif dasturlarini yangilash);

- pedagogik jarayonlarni oldindan loyihalashtirish, raqobatni vujudga keltiruvchi qulay ta'limi muhitni shakllantirish;

- ta'lim standartlariga mos ravishda, harakatdagi dasturlarga yangi va rivojlantiruvchi o'zgartirishlarni kiritish;
- ko'proq samarali hisoblangan va pedagogik jarayon subyektlari uchun qulay bo'lgan o'qitish vositalarini tanlash;
- o'quv rejasining fakultativ va ta'lim muassasasi ixtiyoridagi soatlar hisobiga yangi fanlarni kiritish.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish ilg'or pedagogik texnologiyalarni aniqlash va tatbiq etish muammolarini vujudga keltiradi va bular subyekt-subyekt munosabatlari asoslanadi, bu munosabatlardan shaxsning qiziqishlari, qobiliyatları va sifatlarini anglashga yo'naltirilgan umumiy rivojlanish shartlarini belgilovchi asoslar hisoblanadi.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini aniqlash pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini obyektiv baholashni talab etadi va bunga quyidagilar misol bo'ladi:

- pedagogik jamoaning kasbiy mahoratini o'sishi;
- jamoada barcha uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga kelishi hamda uning mustahkam va ijobiy xususiyatlari;
- pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga subyektlar moyilligi va jamoaning tayyoragarligi;
- ilmiy va ilmiy-metodik salohiyatni o'sishiga jamoadagi moyillik;
- o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasida axborotlar almashinuvi sifatining o'sishi;
- uzlksiz ta'lim tizimining navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirishlari uchun ta'lim oluvchilarni tayyorlash darajasi va ta'lim muassasasida yaratilayotgan shart-sharoitlar sifati;
- umumiy maqsadlarning mavjudligi va manfaatlar uyg'unlashuvi;

- innovatsion jarayonlarda ta'lim subyektlarining samarali ishtirokini ta'minlovchi chora-tadbirlarning mavjudligi.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda subyektlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, erishish zarur bo'lgan maqsadlar yo'nalishida ularning faolligini rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan mavjud motivlarga va motivlashtirishga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonlarni samaradorligini ta'minlashda axborotlar bilan ishslash va ularning yangiligi va ishonchlilagini ta'minlash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayonlar to'g'risidagi hamda ta'lim oluvchilarning tasavvuri, boshlang'ich tushunchalari, ularning dunyoqarashi, ehtiyoji va yashash sharoitlari bo'yicha axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish, tahlil qilish hamda obyektiv baholash o'qituvchilarning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish asosida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirish yo'llari, ta'lim oluvchilarda ijobiy motivlarni shakllantirish va rivojlantirish omillari va vositalari aniqlanadi hamda samaradorlik ta'minlanadi.

Axborot - pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda, shuningdek mazkur jarayon subyektlari hisoblangan o'qituvchilar ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda, pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish hamda samaradorligini oshirishda o'ziga xos, turli xil yangiliklarni o'z ichiga olgan ma'lumot va xabarlardan iborat bo'lib, yangi, ishonchli va zarur axborotlar pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Axborotlar bilan ishslash - turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash va uzatishdan iborat bo'lib, pedagogik jarayonlar subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida

qo'llaniladi. Bu jarayonda pedagogik jarayon tashkilotchilar hisoblangan rahbarlar va o'qituvchilar kelib tushayotgan asosiy ma'lumotlarning generatori sifatida faoliyat ko'rsatadi va ular uchun asosiy vosita axborotlar bo'lib, ular asosida pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirib boriladi.

Axborotlar bilan ishlash o'qituvchilar bilan ta'lim oluvchilar o'rtasidagi shaxsiy va texnologik axborotlar almashuvini tashkil etadi. Uning asosiy xususiyati o'qituvchilar tomonidan ta'lim oluvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni vujudga keltirish asosida ularning faolligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarning o'z o'quv faoliyatidan va tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda yaratilgan shart-sharoitlardan qoniqish xosil qilishlari uchun ularda qiziqishlar vujudga keltirish bilan belgilanib, bu xususiyat o'qituvchilarning o'qitish funksiyalari bilan bir qatorda, axborotlar bilan ishlash funksiyasining ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'ladi.

Axborotlar tizimi - bu pedagogik jarayonlarda muhim pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni, o'qitishning yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini hamda pedagogik jarayonlarni tashkil etish yo'nalishidagi barcha me'yoriy hujjatlarni, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va tashkiliy yangiliklardan iborat axborotlar oqimini, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni o'z ichiga oluvchi murakkab tizim hisoblanadi.

Axborotlar tizimi keng bo'lishi va o'z xususiyatiga qarab yangilanuvchanligini, ya'ni o'zgarib borishi, yangiliklar bilan boyib borishini inobatga olib, axborotlar bilan ishlash jarayoniga pedagogik jarayon tashkilotchilar tomonidan tizimli yondashuvning joriy etilishi talab etiladi. Buning sababi, tizim komponentlari o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro

bog'liqlik va aloqadorlik hamda ixtiyoriy komponent butun bir yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z hissasini qo'shishi va o'zgaruvchi omillarning pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatishidadir.

Axborotlar pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash uchun zaruriy bo'lgan xabar va ma'lumotlar majmuidan iborat. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda eng yangi va ishonchli axborotlar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki pedagogik jarayon subyektlari o'rtaсидаги aloqa shakllari hamda ularning faolligini ta'minlash uchun shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishini belgilash omillari axborotlarga asoslanadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda axborotlar bilan ishlash jarayonlari axborotlar to'plash va uzatish, olingan axborotlarni qayta ishlash, ularning yangiligi va ishonchliligin o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash, zaruriy axborotlarni iste'molchilarga o'z vaqtida etkazilishini nazoratga olish kabi qator vazifalarni o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'qituvchilar tomonidan har bir ta'lim oluvchi haqida to'plagan ma'lumotlar, ya'ni ularning boshlang'ich tushunchalari, ehtiyojlari, qiziqishi va individual psixologik xususiyatlari yo'nalishidagi axborotlar o'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabatlarini muvofiglashtirishda, o'quvchilarning faolligini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ta'lim oluvchilar haqidagi axborotlarning to'liq, ishonchli, aniq va sifatli bo'lishi o'qituvchilar tomonidan pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish, tashkil etish va boshqarish sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda ta'lim oluvchilar haqidagi axborotlar ishonchli va aniq bo'lishi zarur bo'lib, axborotlar pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarning faolligini ta'minlash, ularning

faoliyatini obyektiv baholash va rag'batlantirish omillari sifatida xizmat qiladi.

O'qituvchilar tomonidan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniq va ishonchli axborotlar toplash va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- har bir ta'lim oluvchining yashash va mustaqil ta'lim olishi uchun mavjud shart-sharoitlar;

- har bir ta'lim oluvchining individual psixologik xususiyati, fanga va kasbga bo'lgan qiziqishi hamda ma'lum bir davrdagi ehtiyojlari;

- ta'lim subyektlarining o'zaro munosabatlari;

- ta'lim oluvchining faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar;

- ta'lim oluvchining ta'lim olish yo'nalishidagi zaruriy ehtiyojlari hamda ta'minoti va h.k.

Mazkur yo'nalishlarda to'plangan axborotlar pedagogik jarayonlar samradorligini ta'minlash yo'nalishida belgilangan maqsadlarga erishish mezonlarini belgilash, ta'lim oluvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, har bir ta'lim oluvchining faoliyati va faolligini obyektiv baholash asosida ularni rag'batlantirish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning ijodiy faolligini ta'minlash uchun innovatsion ta'limiy muhitni shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mazkur yo'nalishlarda aniq va ishonchli axborotlar ta'lim subyektlarida mustaqil fikrlash, o'zini-o'zi boshqarish, o'zligini va ijodiy qobiliyatini namoyon etishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, ularning boshlang'ich tushunchalarini rivojlantirish va tafakkurini rivojlantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashga, ularda ta'lim olishga qiziqish shakllantirish, ya'ni motivlashtirishga xizmat qiladi. Ta'lim oluvchi shaxsi uzlusiz ravishda shakllanib va rivojlanib borishini inobatga olgan holda, ular haqidagi ma'lumotlarni ham muntazam yangilab borish zarur hisoblanadi. Bu o'z navbatida pedagogik jarayonlarda

axborotlarning o'ziga xos ahamiyatini ifodalaydi, shuning uchun ham axborotlar yangi va ishonchli bo'lishi zarur hisoblanadi. Ularning yangiligi va ishonchliligi to'plangan axborotlarni o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash jarayonida aniqlaniladi.

Eng yangi va ishonchli hisoblangan axborotlar asosida ta'lif oluvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish, vaziyatlarga bog'liq holda o'zgartirish, takomillashtirish, ya'ni ularning faolligini rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi. Yangi va ishonchli deb topilgan axborotlarga asoslangan holda, pedagogik jarayonlar samaradorligini ham tahlil qilish imkoniyati tug'iladi va ularga asosan pedagogik jarayonlarni takomillashtirish hamda ta'lif oluvchilarda o'qishga bo'lgan ijobjiy motivlarni shakllantirish va motivlashtirish yo'nalishlaridagi vazifalar belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, ta'lif oluvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish, ya'ni motivlashtirish ularda ilm olishga, o'z tasavvuri va tushunchalarini rivojlantirishga moyillik, ma'lum bir kasbga, tabiatga, san'atga, fan va texnikaga qiziqish, kelajakka ishonch tuyg'ularini shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishni nazarda tutadi.

Ta'lif oluvchilar haqida to'plangan va muntazam yangilab borilgan ishonchli axborotlar pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ularning boshlang'ich tushunchalarini, tasavvuri va dunyoqarashini oldindan aniqlash asosida ularni rivojlantirish yo'nalishida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'qituvchilarning vaqtini tejashga, bo'shroq o'zlashtiruvchilarga ko'proq e'tibor qaratishga imkoniyatlar vujudga keltiradi.

Axborotlar yangi va ishonchli bo'lishidan tashqari ulardan o'z vaqtida foydalanish hamda zaruriylarga ko'ra o'z vaqtida ota-onalarga va boshqa o'qituvchilarga ham etkazilishi, ya'ni tezkorligi ham pedagogik jarayonlarning

samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'z vaqtida aniqlangan, o'rghanish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida ishonchli deb topilgan axborotlar pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Axborotlar bilan ishlash vaqtida o'qituvchilar doimo asosiy e'tiborni axborotlarning qanday shakl va tartibda aniqlanganligiga, yangiliqi va ishonchliligiga hamda ulardan foydalanish zaruriyatiga qaratishi lozim, chunki ixtiyoriy axborotning noto'g'riliqi va ahamiyatsizligi turli xil tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Kommunikatsiyalar ma'lum pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, bu subyektlar o'rtasidagi o'zaro axborot almashinuvidir. Pedagogik jarayonlarning samaradorligi axborotlarning samarali almashinishini talab qiladi, shuning uchun u o'zining funksional darajasi bilan tavsiflanadi va pedagogik jarayonning tashkiliy sifatini belgilaydi.

Ikki va undan ortiq insonlar o'rtasidagi axborot almashish jarayoni kommunikatsiya jarayoni bo'lib, mazkur jarayonda insonlar og'zaki va yozma muloqotni amalga oshiradi. Bu jarayonda samaradorlikka erishish uchun o'qituvchilar ta'lim oluvchilarga topshiriqning mazmun va mohiyati to'g'risida ma'lumot berishi, topshiriqlarni qanday va qay tartibda bajarish va qanday natijalarga erishish lozimligini tushuntirishi zarur. Ta'lim muassasalarida mavjud kommunikatsiyalar asosan tashqi va ichki kommunikatsiyalarga bo'linadi.

Ta'lim muassasasi bilan tashqi muhit o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni tashqi kommunikatsiyalarni ifodalab, bunga tashqaridan kelgan axborotlar, yuqori boshqaruv organlari, hokimiyat, vazirlik va ta'lim muassasalarini hududiy boshqaruv organlaridan kelgan axborotlarni kiritish mumkin.


Ichki kommunikatsiya. Ta'lim muassasalarida vertikal va gorizontal axborot almashinushi mavjud bo'lib, bular pedagogik jarayonlarni va subyektlar faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan axborotlar almashinushi, ya'ni ichki kommunikatsiyani ifodalaydi.

Pedagogik jarayonlardagi mavjud kommunikatsion jarayonlar o'qituvchilarga og'zaki va yozma muloqot jarayonida suhbatlashish, yozish, o'qish, nutq so'zlash, ya'ni ma'ruza qilish yo'nalishlarida o'ziga xos talablarni belgilaydi. Mazkur talablar o'qituvchilar tomonidan tushunchalarning mazmun-mohiyatini, beriladigan topshiriqlarni bajarish yo'l-yo'riqlarini, erishish mumkin bo'lgan natijalar haqidagi ma'lumotlarni ta'lim oluvchilarga etkazish jarayonida faqatgina savodli va chiroyli yoza bilishni emas, balki ma'lumotlarni, fikr va g'oyalarni qisqa va ravon, davlat tilida ifodalashni nazarda tutadi. Og'zaki muloqot jarayonida o'qituvchilar dialogik va monologik nutqlardan foydalana bilishi, so'zlardan tashqari turli xil xatti-harakat, holat, kulgu, ohang, mimika, to'xtashlardan to'g'ri foydalanishi zarur bo'lib, bular o'quvchilarga turlichalagi bilan bir qatorda, muloqot jarayonini to'ldiradi va ijobji ta'sirini kuchaytiradi.

Demak, pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va samaradorligini ta'minlash uchun mavjud ehtiyojlarni, ta'lim oluvchilarining boshlang'ich tushunchalari va tasavvuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini, pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sir va refleksiv faoliyatning ahamiyatini, innovatsion faoliyatning zaruriyatini hamda o'zaro ta'sir ko'rsatish madaniyati, motivlar va motivlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini, axborotlar va kommunikatsion jarayonlarni pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalari sifatida inobatga olish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, uzlaksiz ta'lim tizimi muassasalarida pedagogik

jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoni modelini quyidagicha tasvirlash mumkin (3-rasm).

Mazkur modelda keltirilgan komponentlar mazmun-mohiyatiga ko'ra pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ya'ni ularning professionalligi, ta'lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda kompetentli pedagog bo'lishi muhim ahamiyat kasb etishini ifodalaydi.



3-rasm. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish jarayoni modeli

UMUMIY XULOSALAR

1. Pedagogik jarayon – bu shaxslararo munosabatlarda, bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish jarayonida (tarbiyaviy munosabatlar) insonlarning shaxsiy sifatlarining shakllanishi va rivojlanishiga, xatti-harakati va dunyoqarashining o'zgarishiga, tajribasining boyishi, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladigan omillar majmuini tashkil qiluvchi ta'limiyl muhit hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimidir.

2. Pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligini inobatga olib, uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi pedagogik tizimni tashkil etadi deb aytishimiz mumkin.

3. Uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, belgilangan maqsadlarga erishish va samaradorlikni ta'minlashda hamda innovatsion jarayonlarni tashkil etish va natijaviylikka erishishda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, obyektiv baholash va muntazam rag'batlantirib borish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

4. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash mazkur jarayonlarni tashkil etishga tizimli yondashuvni tatbiq etish zaruriyatini belgilaydi.

5. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda o'qituvchi o'ziga xos pedagogik funksiyani bajaradi.

Pedagogik funksiya - bu o'qituvchining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llash yo'nalishidir. O'qituvchi o'z faoliyatida ta'lim oluvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularning shaxsini rivojlantirish va shakllantirishga intiladi. Bu funksiyalarni bajarish uchun ko'plab faoliyat turlarini bajaradi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'qituvchining bosh funksiyasi - ta'lim, tarbiya, rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarini boshqarishdir.

6. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi - bu boshqaruv qonuniyatları, usul va metodlari hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv faoliyati asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviylici hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayon samaradorligi ko'p jihatdan uning quyidagi o'ziga xos jihatlarini inobatga olish zaruriyatini belgilaydi:

- pedagogik jarayon samaradorligi o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi;

- pedagogik jarayonning o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan barcha tashkil etuvchi qismlari bir butun, yaxlit dinamik tashkiliy tuzilishga ega ekanligi;

- pedagogik jarayon dinamikasi protsessual xususiyatlarga ega ekanligi;

- uzluksiz ta'lim pedagogik jarayon komponentlarining o'zgarishi pedagogik tizim samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi.

- pedagogik jarayonlar samaradorligi ta'lim oluvchilar faolligi va mustaqil faoliyatiga bog'liqligi;

- ta'lim oluvchi shaxsining rivojlanishiga turli darajada ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligi;

- pedagogik jarayonlar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi;

- pedagogik jarayonlarda qayta aloqaning o'ziga xos ahamiyati va zaruriyati;
- pedagogik jarayonning protsessual tomoni, ya'ni to'g'ri va teskari jarayonlarning mavjudligi;
- ta'lif oluvchilarda ta'lif olishga bo'lgan qiziqish, ya'ni ularda o'quv motivlarini shakllantirish zaruriyati;
- ta'lif oluvchilarda ijobiy motivlar shakllantirishning samaradorligi pedagogik jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi;
- pedagogik jarayonlarni samaradorligining motivlashtirishga bog'liqligi;
- pedagogik jarayonlarda axborotlarning yangi va ishonchli bo'lishi zaruriyati.

7. Uzluksiz ta'lif tizimida tashkil etiladigan pedagogik ahamiyat kasb etuvchi barcha jarayonlar majmui yaxlit tizim sifatida, ya'ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda tizimli yondashuv; pedagogik jarayonlarda subyektlar faolligini ta'minlash va aniq maqsadlarga ko'ra belgilangan vazifalarni bajarishga subyektlarni motivlashtirishda shaxs-faoliyat yondashuvi; pedagogik jarayon samaradorligini aniq vaziyatlarga ko'ra aniqlash, vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib borishda vaziyatli yondashuv; pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish, ko'zlangan maqsadga erishishda subyektlar faolligini ta'minlashga jalb etiladigan sarf-xarajatlar (vaqt, mehnat, qo'shimcha metodik mahsulotlar va vositalar)ning me'yordan ortmasligini ta'minlash, subyektlarning imkoniyati, qobiliyati va boshlang'ich tushunchalariga hamda mavjud vaziyatlar va shart-sharoitlarga mos keluvchi, eng qulay bo'lgan hamda pedagogik jarayon va uning tarkibiy tuzilishini qayta tashkil eta oladigan tizimni vujudga keltirishda muvofiqlashtirilgan yondashuv; pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash asosida

erishilgan natijalar orqali, ya'ni belgilangan vazifalar va o'rganiladigan tushunchalarning mazmun-mohiyatini har bir ishtirokchiga tushuntirish orqali subyektlarning o'zini-o'zi boshqarishi hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvni joriy etishini ta'minlash asosida samaradorlikka erishishda natijalar orqali boshqaruv; pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning boshlang'ich tushunchalari asosida ularning faolligini ta'minlash, o'rganilayotgan tushunchalarga nisbatan ularning qiziqishini shakllantirish va rivojlantirishda refleksiv yondashuv, shuningdek, etnik yondashuv, milliy-hududiy yondashuv, innovatsion yondashuv texnologiyalarini amaliyatga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

7. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, qo'yilgan maqsadlarga erishish va samaradorlikni ta'minlashda subyektlar faolligini ta'minlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va obyektiv baholash asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish va uning natijaviyligini ta'minlash yo'nalishidagi o'qituvchi faoliyatining mazmun-mohiyati axborot-tahlil, maqsadli-motivlashtirish, oldindan ko'rish-rejalahtirish, tashkiliy-ijrochilik, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat-tashxis funksiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Mazkur funksiyalarни amalga oshirishda qo'llaniladigan ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, axborotlar to'plash kabi metodlar pedagogik jarayonlarda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishda qo'llaniladigan ta'sir etish yo'llari va usullarining majmuini, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi.

8. Uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va samaradorligini ta'minlash uchun mavjud ehtiyojlarni, o'quvchilarning boshlang'ich tushunchalari va tasavvuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini, pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sir va refleksiv faoliyatning ahamiyatini, innovatsion faoliyatning

zaruriyatini hamda o'zaro ta'sir ko'rsatish madaniyati, motivlar va motivlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, axborotlar va kommunikatsion jarayonlarni pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalari sifatida inobatga olish zarur.

9. Pedagogik xodimlar o'rtasida pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va samaradorlikni ta'minlash yo'nalishida o'tkazilgan anketa so'rovlari natijalarining ko'rsatishicha, uzuksiz ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning aksariyati o'z faoliyatida pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmaydi, o'z faoliyatini va ta'lim jarayonida qo'llayotgan uslublarning samaradorligini tahlil qilmaydi. Pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan o'zgarishlarga, o'quvchilarning faolligiga alohida e'tibor qaratmaydi, o'qitish texnologiyalari va metodlari, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, shaxsiy refleksiv faoliyatni tashkil etish yo'nalishlarida etarli tushunchalarga ega emas. O'qituvchilarning ko'pchiligidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalarning etarli darajada emasligi pedagogik jarayonlarda "o'qituvchi-o'quvchi" munosabatlari shaxsga yo'naltirilgan o'zaro ta'sir ko'rsatishga asoslanmasligini, balki an'anaviy o'qitish uslublari xali ham hukm surishini ko'rsatadi.

10. Ta'lim-tarbiya jarayonini zamонавиу талабларга мөрнавишда ташкил этиш ю'налышда аксарият узуksiz ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar pedagogik kompetentliligining etarli darajada rivojlanmaganligini quyidagi holatlarda ko'rish mumkin: ko'p o'qituvchilar pedagogik jarayonlarda motivlashtirish va motivlashtirish jarayonlarining ahamiyatini obyektiv baholay olmaydi; pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan o'zaro ta'sir jarayonining ahamiyati etarli inobatga olinmaydi; ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyaviy munosabatlari jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari etarli darajada inobatga olinmaydi;

pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmaydi; pedagogik jarayonlarda vujudga keluvchi vaziyatlarga ko'ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ya'ni vaziyatli yondashuvni tatbiq etish bo'yicha etarli darajada tushunchalar shakllanmagan; ko'pchilik o'qituvchilar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalari va metodlaridan samarali foydalanish bo'yicha etarli ma'lumotga ega emaslar.

Bugungi kunda o'qituvchilarning ko'pchiligi o'z pedagogik faoliyatlarining samaradorligidan qoniqish hosil qilmaydi. Ular qoniqish hosil qilmaslikning asosiy sababini "pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish" alohida fan sifatida o'qitilmaganligida deb baholaydilar. Aksariyat o'qituvchilar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish bo'yicha alohida tayyorlov kursidan o'tishga ehtiyoj sezmoqda va shu bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning yangi noan'anaviy shakl va metodlarini, mazkur jarayonlarni boshqarish yo'nalishidagi zaruriy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni birinchi darajali zaruriyat deb hisoblaydilar.

11. Uzlusiz ta'lim tizimi o'qituvchilarining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotimiz jarayonida ishlab chiqilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning nazariy asoslari va shuningdek, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan qo'llanma va tavsiyalar ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash yo'nalishlarida yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida olingan natijalar tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida olg'a surilayotgan yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish samarali ekanligini isbotlaydi.

T A V S I Y A L A R

1. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tarbiyaviy munosabatlarning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish.

2. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayon ishtirokchilari faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish asosida ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish, ko'zlangan maqsadlarga erishish va pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutish.

3. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoniga innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish hamda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tizimning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, murakkab pedagogik tizimga xos xususiyatlarni inobatga olish.

4. Pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarning boshlang'ich tushunchalari va o'zi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish, o'quvchilar faoliyatining tahliliy yo'nalishini, pedagogik tizimni konseptual va dasturiy boshqarishning o'zlashtirilishini amalga oshirish.

5. Pedagogik jarayonlarda innovatsion yondashuvlarning natijalari bo'yicha qayta aloqani yo'lga qo'yish, o'quvchilarning boshlang'ich tushunchalari va tayyorgarlik darajasini aniqlash, innovatsion jarayonlarga ularni oldindan tayyorlash va ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash.

6. Pedagogik jarayonlarga yangiliklarni tatbiq etish va subyektlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, axbortlar to'plash, ularni tahlil qilish va obyektiv baholash asosida o'zgaruvchan vaziyatlarga ko'ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish.

7. Pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashda quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini inobatga olish:

- maqsadiy samaradorlik - bu pedagogik jarayonlar subyektlari salohiyati, imkoniyatlari va mavjud imkoniyatlarni belgilangan maqsadlarga mos kelish darajasini ifodalovchi xususiyatlar;

- ijtimoiy-psixologik samaradorlik - bu pedagogik jarayonlardagi ta'limiy muhitning holati tavsifi bo'lib, subyektlarning ehtiyojlarini rivojlanishi, ularning yaratilgan shart-sharoitlardan va o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilish darjasи;

- ta'minot samaradorligi - erishilayotgan natijalarining ilmiy-metodik ta'minotga bog'liqligi;

- texnologik samaradorlik - subyektlarning asosiy funksiyalarini amalga oshirilish darjasи, shuningdek, subyektlar faolligini rivojlantirish samaradorligi.

8. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishlarida o'qituvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish hamda refleksiv qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni uzluksiz ta'lim tizimida muntazam tashkil etib borish.

9. O'qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash jarayonlarida "Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat, samaradorligini oshirish" fanining o'qitilishini joriy etish.

**PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH YO'NALISHIDAGI ASOSIY
TUSHUNCHALAR,
TAYANCH SO'Z VA IBORALAR**

Avtoritar rahbarlik – bu uslubda faoliyat ko'rsatuvchi professor-o'qituvchilar o'z irodasini o'quvchi-talabalarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqitish, jazolash va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi. Bu uslub bevosita buyruq va ko'rsatmalar berishga asoslanib, o'quvchi-talabalarni so'zsiz bo'ysunishini nazarda tutadi, ya'ni pedagogik jarayonlarda o'quvchi-talabalar erkinligi cheklanadi hamda faqat professor-o'qituvchilar pedagogik jarayonning yagona sub'yekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning bevosita va erkin muloqotda bo'lishi chegaralab qo'yiladi. Bunday vaziyatda o'quvchi-talabalarning pedagogik jarayonga munosabatlari, ularning ehtiyojlari va manfaatlari psixologik jihatdan e'tiborga olinmaydi.

Bu "ajratib tashla va hukmronlik qil" tamoyiliga asoslangan shafqatsizlarcha uslubdir. Bunday uslub garchi bir-muncha samarali bo'lsa ham, aslida, pedagogik jarayonlarda muxoliflik, norozilik kayfiyatini shakllantiradi. Bunday uslub ta'sirida o'quvchi-talabalar o'z o'quv faoliyatidan qoniqmaydi, uning natijalariga qiziqmaydi va bular o'z navbatida pedagogik jarayonning samaradorligini pasayishiga sabab bo'ladi. Bunda mazkur uslubning turli xil shakli va usullari vujudga keladi:

- mutloq - diktatorlik shakli - professor-o'qituvchilar pedagogik jarayonning yagona sub'yekti sifatida faoliyat ko'rsatadi, mazkur jarayonda o'quvchi-talabalar faol ishtirok etmaydi. Bunday uslubdan foydalanuvchi professor-o'qituvchilar multasil buyruq berishga, majburlash, qo'rqitish orqali o'quvchi-talabalarni o'z istaklariga so'zsiz bo'ysundirishga intiladi, natijada o'quvchi-talabalarda ta'lim

uchun ta'lim olish, ya'ni o'z faoliyatidan qoniqmasdan yoki o'rganilayotgan fanga qiziqishsiz ta'lim olish, shaxsiy qiziqishlarsiz va manfaatlar uyg'unlashuvvisiz ta'lim olish, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqib ta'lim olish, majburan ta'lim olish yo'nalishidagi motivlar shakllanadi;

- avtokratik usul - yakkahokimlik tushunchasini bildiradi, ya'ni hukmronlikni amalga oshiruvchi professor-o'qituvchilarining ixtiyorida keng imkoniyat va vakolatlar bo'lishini ko'zda tutib, bu ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruvning byurokratik turi;

- patriarchal yoki matriarchal shaklida professor-o'qituvchilar "oila boshlig'i" mavqeidan foydalanish yordamida pedagogik jarayonlarni tashkil etadi va boshqaradi, o'quvchi-talabalar ularga nisbatan juda katta ishonch bildirishadi va shunga asosan bo'ysunishadi;

- iltifotli - xarizmatik shakli, bunda professor-o'qituvchilar shaxsning o'ziga xos takrorlanmas donolik, xayriyohlik, qahramonlik, mardlik kabi xususiyatlariga asoslangan yuqori darajadagi mavqeidan foydalanadi, o'quvchi-talabalar uning xatti-xarakatlarini, maqsadlari yo'nalishini o'zaro munosabatlar jarayonida kuzatishadi, shuningdek, uning ijobjiy sifatlariga, ichki dunyoqarashiga hurmat bilan qarashadi.

Axborot - pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda, shuningdek mazkur jarayon sub'yektlari hisoblangan professor-o'qituvchilar va o'quvchi-talabalar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda, pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish hamda samaradorligini oshirishda o'ziga xos, turli xil yangiliklarni o'z ichiga olgan ma'lumot va xabarlardan iborat bo'lib, yangi, ishonchli va zarur axborotlar pedagogik jarayon sub'yektlari faoliyatini muvofiqlashtirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Axborotlar bilan ishslash - turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash va uzatishdan iborat bo'lib, pedagogik

jarayonlar sub'yeqtleri faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonda qo'llaniladi. Bu jarayonda pedagogik jarayon tashkilotchilari hisoblangan rahbarlar va professor-o'qituvchilar kelib tushayotgan asosiy ma'lumotlarning generatori sifatida faoliyat ko'rsatadi va ular uchun asosiy vosita axborotlar bo'lib, ular asosida pedagogik jarayon sub'yeqtleri faoliyati muvofiqlashtirib boriladi..

Axborotlar bilan ishlash funksiyasi - professor-o'qituvchilar bilan o'quvchi-talabalar o'ttasidagi shaxsiy va texnologik axborotlar almashuvini tashkil etadi. Uning asosiy xususiyati professor-o'qituvchilar tomonidan o'quvchi-talabalarning faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni vujudga keltirish asosida ularning faolligini ta'minlash, o'quvchi-talabalarning o'z o'quv faoliyatidan va tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda yaratilgan shart-sharoitlardan qoniqish xosil qilishlari uchun ularda qiziqishlar vujudga keltirish bilan belgilanib, bu xususiyat professor-o'qituvchilarining o'qitish funksiyalari bilan bir qatorda, axborotlar bilan ishlash funksiyasining ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'ladi.

Axborotlar tizimi - bu pedagogik jarayonlarda muhim pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni, o'qitishning yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini hamda pedagogik jarayonlarni tashkil etish yo'nalishidagi barcha me'yoriy hujjatlarni, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va tashkiliy yangiliklardan iborat axborotlar oqimini, zamонавиy axborot texnologiyalari, komp'yuterlashtirish va komp'yuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni o'z ichiga oluvchi murakkab tizim hisoblanadi.

Axborotlar tizimi keng bo'lishi va o'z xususiyatiga qarab yangilanuvchanligini, ya'ni o'zgarib borishi, yangiliklar bilan boyib borishini inobatga olib, axborotlar bilan ishlash jarayoniga pedagogik jarayon tashkilotchilari tomonidan tizimli yondashuvning joriy etilishi talab etiladi. Buning

sababi, tizim komponentlari o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik hamda ixtiyoriy komponent butun bir yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z hissasini qo'shishi va o'zgaruvchi omillarning pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatishidadir.

Axborotlar to'plash metodlari. Barcha metodlar qatori axborotlar to'plash metodlari ham pedagogik jarayonlarni takomillashtirish uchun sub'yektlar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik jarayonning holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash va sub'yektlarning faoliyatini ob'yektiv baholashni amalga oshirishga xizmat qiladi, mazkur metod me'yoriy hujatlarni va ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, pedagogik jarayonlar samaradorligini tahlil qilish, so'rovnomalar o'tkazish, professor-o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish, tahliliy baholash, umumlashtirish va tizimlashtirish, statistik va matematik tahlil va boshqa ko'pgina usullarni o'z ichiga oladi.

Axborot-tahlil funksiyasi. Uning asosiy vazifasi pedagogik tizimlar (pedagogik jarayon) to'g'risida uzlusiz ravishda axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish hamda ob'yektiv baholashdan iborat. Bu vazifalarni bajarish asosida boshqaruva faoliyatining strategiyasi, rivojlanish omillari, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish hamda uning samaradorligini nazorat qilish yo'llari aniqlanadi. Shuning uchun axborotlar nafaqat ishonchli, balki yangi va foydali bo'lishi ham zarur.

Axloqiy xislatlar - odamiylik, qanoatlilik, jonkuyarlik, mehribonlik, olijanoblik, olihimmatlilik, baynalminallik, g'oyaviy sodiqlik, kechirimlilik, andishalilik, shaxsiy manfaatdan ijtimoiy manfaatdorlikni yuqori qo'ya olishlik.

Bilim darajasi - rahbarlar va professor-o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari, komp'yuterlashtirish va komp'yuterlar

tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborotlar bilan ta'minlashni rivojlantirishi uchun texnika va texnologiyani bilishi va ulardan foydalana olishi, iqtisodiyotni bilishi, boshqarish uslublarini, funksiyalari va strukturasini bilishi, istiqbolni belgilash hamda boshqaruv jarayonini loyihalash texnologiyalarini joriy eta olishini belgilaydi.

Boshqarish strukturasi - "struktura" lotincha so'z bo'lib, narsalar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq ravishda joylashishi, tashkiliy tuzilishini bildiradi. Boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarini bajaruvchi bir-biri bilan bog'langan turli boshqaruv organlari va bo'g'inlarining majmui tushuniladi. Boshqarishning maqsadlari, funksiyalari, vazifalari, ob'yektlari va uning tashkiliy tuzilishini belgilab beradi.

Boshqarishning demokratik tamoyili - uning mohiyati, asosan, boshqarish jarayoniga barcha jamoa a'zolarini jalb etish, qarorlar qabul qilishda, muassasa maqsadi va vazifalarini belgilashda barcha xodimlar qatnashishini taqozo etadi. Qatnashish shakli turlicha bo'lishi mumkin: boshqarishda yagona ma'muriylik, birgalikdagi pul mablag'lari, boshqarish qarorlarini kollegial hal qilish va hokazo.

Boshqaruv - bu so'z odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi tizim (yoki boshqaruv ob'yekti)ga faol ta'sir ko'rsatish to'g'risida gapirliganda qo'llaniladi. Bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi faoliyat bo'lib, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir.

Boshqaruv madaniyati - umumiy ijtimoiy madaniyatning tashkil etuvchi komponenti sifatida ma'lum bir ijtimoiy madaniyat kontekstida boshqaruv tushunchalari, munosabatlarning o'zaro ta'sir etishi natijasida shakllanadi va unda qator kattaliklar - an'anaviylik, dolzarblik darajasi, motivlashtirish tizimi; rahbarlik uslublari, tashkiliy muhitning sifati; kommunikatsiyalar; personalni boshqarish; boshqaruv strategiyasi; rahbar va professor-

o'qituvchilarning kasbiy madaniyati rasmiy jihatdan namoyon bo'ladi.

Boshqaruv mas'uliyati - ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish, pedagogik jarayonlarni zamonaviy talablarga mos, ilmiy asosda tashkil etish, sub'yeqtlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda umumiy manfaatlarni ko'zlovchi natijalarga erishish uchun qabul qilgan qaror, uning ijrosi, o'z xatti-harakati va faoliyati uchun javobgarlikning rahbarlar va professor-o'qituvchilar tomonidan his qilinishidir.

Boshqaruv muloqoti - pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sub'yeqtlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonidagi muloqot, ya'ni sub'yeqtarning faolliklarini ta'minlash, xatti-harakatlarini maqsadga yo'naltirish yoki motivlashtirishdir.

Boshqaruv pog'onasi - tashkiliy tuzilishga ko'ra ta'lim muassasasining yuqori bo'g'ini (rahbarlar) bilan quyi bo'g'ini (ijrochilar) o'rtasidagi masofaning katta-kichikligi - pog'onaviyligi, ya'ni bu bir zvenoning (xodimning) boshqasiga bo'ysunish ketma-ketligidir. Rahbar bilan oddiy ijrochi o'rtasidagi masofa qanchalik katta bo'lsa (darajalar soni) ta'lim muassasalaridagi pog'onaviylik darajasi shunchalik katta bo'ladi.

Boshqaruv uslubi - bu muassasa oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda xodimlarni boshqarish hamda boshqaruv jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan usullar, yo'llar majmuidir. Boshqaruv faoliyatining uslublarini shakllantirish ma'lum darajada rahbarning yashash va mehnat qilish sharoitlariga asoslanadi (mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar, boshqaruv faoliyati muhiti va h.k.) va boshqaruv sub'yeqtining harakatlariga tizim orqali ta'sir ko'rsatgan holda uning individual uslublarini rivojlantiradi.

Boshqaruv faoliyati - ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita sub'yeqtning,

ya'ni rahbar bilan ta'lif tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv ob'yekti boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lif tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lif muassasasi ham o'z o'rnidagi boshqaruv natijalariga va boshqaruv sub'yeqtiga ta'sir ko'rsatadi.

Vaziyatlari yondashuv - boshqarishning samaradorligini aniq vaziyatlarga ko'ra aniqlashni ko'zda tutadi. Vujudga kelayotgan vaziyatlarga muvofiqlashtirilgan boshqaruv eng samarali hisoblanadi.

Demokratik rahbar - bunday turdagidan rahbar o'z faoliyatini o'zining jamoasi a'zolariga tayangan holda, jamoa fikrini inobatga olib amalga oshiradi. Boshqaruv vakolatlari, faoliyat uchun javobgarlik bo'ysunuvchilar o'rtasida taqsimlanadi. Xodimlarning o'zaro munosabatlarni rag'batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga qulooq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobjiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi.

Didaktik qobiliyatlar - bu pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda ko'zlangan maqsadning mazmun va mohiyatini, vaziyatlarga ko'ra unga erishish yo'llarini va mazkur yo'nalishdagi vazifalarni sub'yektlarga aniq va ravshan, tushunarli qilib etkaza olish, ularda mazkur vazifalarni bajarishga mas'uliyat hissini hamda qiziqishni uyg'ota olish, shuningdek, maqsadga erishishda sub'yektlarning barchasini faol ishtirokini ta'minlay oladigan qobiliyatlardir.

Ijtimoiy-psixologik metodlar - pedagogik jarayon sub'yektlari o'rtasida shunday munosabatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadiki, bunda professor-o'qituvchilar o'quvchi-talabalarning bemalol, erkin harakat qilishi, o'zini-o'zi namoyon qilishi, turli jarayonlarda erkin ishtirok etishi, fikr bildirishi uchun shart-sharoit va ijodiy ta'limiylar muhitni yaratishi nazarda tutiladi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv – bu sub'yeqtlnarni ta'limiylar muhit ta'siriga moslashuvini nazarda tutadi va uning ma'lum bir guruhdagi qadriyatlar bilan yaqinlashuvi, mazkur yangi muhittagi ijtimoiy me'yorlarni, an'ana va guruhiy madaniyat elementlarini o'zlashtirishidir. Ijtimoiy-psixologik moslashuv ham kasbiy moslashuv singari ma'lum bir imkoniyatlar darajasida, tashqi muhit ta'sirini o'z ichki dunyosi, kechinmalari doirasida o'z maqsad va ehtiyojlariga moslashtirib olishiga bog'liq.

Innovatsion jarayon. Innovatsiyalarni vujudga keltirish, amaliyotga tatbiq etish va ommalashtirish faoliyatlar bilan bog'liq. Innovatsion salohiyatiga ko'ra yangiliklar; modernizatsiya, faoliyatni takomillashtirish, shaklan o'zgartirish, rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan modifikatsion innovatsiyalar; oldindan ma'lum bo'lgan metodlar elementlarining yangi tizimga birikishini nazarda tutuvchi birikkan innovatsiyalar; o'xshashlik va umumiylikka ega bo'lмаган radikal innovatsiyalar pedagogik jarayonlar samaradorligining asosi sifatida belgilanadi.

Innovatsiya – maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka – muassasa, uyushma, jamoa va guruhlarga yangi va nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umumiyligi holda xalqning ma'naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir.

Integrativ mahorat – bu umumlashtirilgan mahorat bo'lib, pedagogik jarayonlarda ijobiy natijalarga erishishga, pedagogik jarayonlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirishda zarur hisoblanadi.

Integratsion yondashuv – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda boshqariluvchi ob'yeqt (pedagogik jarayon)ga bir necha yondashuvlarni (vaziyatli, tizimli, innovatsion va h.k.) qo'llash bo'lib, umumlashtirilgan yondashuvlarni ifodalaydi.

Ixtilof - shaxslararo ixtiloflar shaxslarning bir-birini anglamasligi, manfaatlarining turli xilligi, tushunchalarining nomutanosibligi, bir-birini yoqtirmasligi, qiziqishlari, qarashlari va intilishlarining o'zaro mos kelmasligi natijasida namoyon bo'ladi. Har qanday ixtilof ma'lum vaqt birligida davomida sodir bo'ladi, etiladi va bartaraf etiladi.

Ixtiloflarni boshqarish - bu ixtilofni vujudga keltirishi mumkin bo'lgan sabablarni oldindan aniqlash va ularga barham berish yo'nalishida aniq maqsadli ta'sir ko'rsatish yoki ixtilof qatnashchilari xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan ta'sir ko'rsatish. Ixtilofni keltirib chiqargan sabablarni to'liq yoki qisman barham toptirish yoxud ixtilof qatnashchilari maqsadlarining o'zgarishi ixtiloflarning hal etilishidir.

Ixtilofli vaziyat - tomonlarning biron-bir yo'nalishdagi qarama-qarshi, ziddiyatli nuqtai nazari, o'zaro umumiyligi manfaatlarga mos kelmaydigan maqsadlarga intilish, ularga erishish uchun turli-tuman vositalardan foydalanish yoki faoliyatni amalga oshirishni rejalashtirish jarayoni.

Ichki kommunikatsiya. Ta'lim muassasalarida vertikal va gorizontal axborot almashinuvi mavjud bo'lib, bular ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan axborotlar almashinuvi, ya'ni ichki kommunikatsiyani ifodalaydi.

Ish yuritish - bu ta'lim muassasasining o'z funksiya va vazifalarini bajarishi davomida amalga oshiriladigan faoliyat va unga tegishli ko'rsatmalarni me'yoriy hujjatlar asosida rasmiylashtirish usullari va jarayonlari majmui hisoblanadi.

Ishbilarmxonlik, ishchanlik, uddaburonlik xislatlari - quntilik, tirishqoqlik, mas'uliyatlilik, halollik, raqobatbardoshlik, chaqqonlik, abjirlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, chidamlilik, sabr-toqatlilik, bardoshlilik, muntazamlilik, tejamkorlik, ehtiyyotkorlik, saxiylik, mardlik.

Qaror - bu ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirishda rahbarlar va xodimlar tomonidan amalga

oshiriladigan vazifalarni bajarish yo'llarini tanlash va belgilash yoki innovatsion faoliyatni tashkil etishda ma'lum bir to'xtamga yoki muayyan bir fikrga kelishdir.

Kasbiy mahorat va loyihalashtirish - boshqaruvda strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, muassasaning umumiy faoliyatini loyihalashtirish, innovatsion faoliyatni tashkil etish, boshqaruv jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdir.

Kasbiy tajriba - avlodlarning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llashni ta'minlab beruvchi tushunchalar tizimi bo'lib, rahbarlar va professor-o'qituvchilarning o'z faoliyati davomida fan-texnika yangiliklariga, ilg'or tajribalarga tayanishi hamda mazkur tajribalar asosida o'zining ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borishi bilan bir qatorda, o'quvchi-talabalar faoliyatini boshqarishidir.

Kasbiy faoliyatning belgilari - ixtisoslashtirish, mehnat faoliyatining mohiyati va mazmuni, boshqaruv ob'yekti, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos vositalar, tushunchalar, boshqaruv faoliyatining natijasi, asosiy faoliyat uchun sarflangan vaqt, ish o'mining ko'lami va joyi.

Kasbiy qobiliyat - bu rahbarlar va professor-o'qituvchilarda intellektual, kasbiy malaka va ko'nikma, chidamlilik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tashkilotchilik, o'z fikrini yaxshi bayon eta olishi - notiqlik, ishontira olish, nazorat, kuzatuvchanlik, talabchanlik, xotirada saqlab qolish, tarbiyaviy munosabatlarda faollik hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish, boshqaruvchilik va liderlik xususiyatlarining shakllanganligi.

Kelishuv - professor-o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarning ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatishi uchun ma'lum muddatga tuzilgan shartnoma, boshqa

tashkilotlar va o'quv yurtlari bilan ilmiy-amaliy hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha oldindan shartnoma tuzish tizimi.

Qobiliyat - insonning bilim, ko'nikma va malakalarini orttirish xususiyatlariga bog'liq bo'lib, mazkur xususiyatlar bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli bo'lmaydi, ya'ni qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zida ko'rinxaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi. Qobiliyat insonlarni sifat jihatidan bir-biridan farqlaydigan individual-psixologik xususiyatlardir. Qibiliyatlar insonlarning aniq bir faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lmaydi, balki ularning tarkib topishi ta'lim va tarbiya jarayonida sodir bo'ladi.

Ko'nikma - belgilangan maqsadga muvofiq ravishda harakat usullarini tanlash va amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalanish.

Liberal rahbarlik - murosasozlik (ko'ngilchanlik)ka asoslangan rahbarlik uslubi. Liberal (erkin ish yuritish) rahbarlik uslubi professor-o'qituvchilarining o'quvchi-talabalarga topshiriq va maslahatlarni tavciyalar ko'rinishida berishi, o'quvchi-talabalarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda professor-o'qituvchilar vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi, pedagogik jarayonlarda o'quvchi-talabalarga keng doirada mustaqillik, to'la erkinlik berish bilan bir qatorda, ularning harakatlariga kam e'tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi. O'z zimmasiga ma'suliyat olishni yoqtirmaydi, kelishuvchanlik asosida faoliyat ko'rsatadi, ya'ni o'quvchi-talabalar bilan o'zaro munosabatlarni buzmaslik uchun ularning barcha talablarini bajaradi. Bu o'z o'rnida pedagogik jarayonlarda tartibsizlik vujudga kelishiga, o'quvchi-talabalarning xatti-harakati va o'quv faoliyati yo'nalishidagi nazoratning sustlashiga, ularning muayyan fanga bo'lgan qiziqishlarining yo'qolishiga olib keladi, shuningdek boshqa pedagogik jarayonlarda ham o'quvchi-talabalar faolligining susayishiga sabab bo'ladi.

Ushbu rahbarlik uslubining quyidagi usul va shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- kommunikatsion moyillik - bunda professor-o'qituvchilar o'quvchi-talabalarga turli xil savollarni berishi, o'z fikrlarini bildirishi uchun imkoniyatlar beradi, bu boshqaruvning maslahatli usuli bo'lib, o'quvchi-talabalar tomonidan berilgan takliflar, ularning fikrlari, ular tomonidan bajarilgan topshiriqlarning natijalari o'rganib chiqilishi sababli berilayotgan topshiriqlar ular tomonidan o'z vaqtida bajariladi;

- hamkorlikda qabul qilingan qarorlar asosida boshqaruv - pedagogik jarayonlarda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish usullaridan keng foydaliladi hamda professor-o'qituvchilar muammoning yechimini topish uchun barcha o'quvchi-talabalarni jalg etadi va bunda muammoni yechish tartibini o'zi belgilaydi, shuningdek, o'zining barcha huquqlari va vakolatlarini saqlab qolgan holda o'quvchi-talabalar tomonidan muammoning yechimi bo'yicha qaror qabul qilinishiga ruxsat beradi.

Liderlik. Lider asosan ma'lum bir guruhda o'zi boshchilik qilayotgan yo'nalishlarda shaxslararo (norasmiy) munosabatlarni boshqarib, u o'z guruhi a'zolarining kuchli va salbiy tomonlarini, ijobiyligi va salbiy odatlarini, shuningdek, ularning psixologik xususiyatlari, kayfiyatları, moyilligi, intilishlari hamda qiziqishlarini yaxshi bilganligi sababli etakchilik qiladi. Ixtiyoriy jamoada turli yo'nalishlarda liderlar bo'lishi mumkin. Masalan, turli xil tadbirlarni (jamoa a'zolarining turli xil uy ishlarida hasharlar, dam olish tadbirlari, guruh bo'lib turli xil ziyoftlar uyuştirish va h. k.) tashkil etish bo'yicha jamoatchilik yo'nalishida, sport yoki sportning ma'lum bir turi bo'yicha, o'quv jarayonini tashkil etish yoki fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish yo'nalishlarida.

Loyihalash - Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini loyihalashda tizimli ob'yekt sifatida

yaxlit pedagogik jarayonni rivojlantirish va uning unikal modelini takomillashtirishga tashkil etuvchi qismlar ta'sir ko'rsatishining ahamiyatini inobatga olish, shuningdek, bir xil va teng sharoitlarda pedagogik jarayonlarning rivojlanishiga ko'proq ta'sir ko'rsatuvchi ba'zi qism va bo'g'lnarni o'zgartirishga imtiyozlar berish zarur.

Shuningdek, pedagogik jarayonlarning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish pedagogik jarayonlarda o'rganiladigan tushunchalarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda axborotlarning yangiligi va ishonchlilagini ta'minlash zaruriyatini belgilaydi.

Bunda dars (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, ekskursiya), darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar (davra suhbati, uchrashuv, turli musobaqa va tanlovlар, konferensiya va h.k.), mustaqil ta'lim hamda tarbiyaviy munosabatlar (inson-inson, inson-texnika-inson, inson-kitob-inson, inson-tabiat-inson, inson-san'at-inson kabi tarbiyaviy munosabatlar) jarayonlarini, shuningdek ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda talabalar (oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalari) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot yaxlit, bir butun dinamik tizim ko'rinishida tasavvur qilinib loyihalashtirilishi zarur.

Pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish va tashkil etishda dars va darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar, mustaqil ta'lim, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik amaliyot va pedagogik tajriba-sinov jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash o'quvchi-talabalar uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi hisoblangan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Lokal baholash - bu baholash ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish, pedagogik jarayonini tashkil

etish va boshqarish yo'nalishida ma'lum bir vazifani yoki uning bir qismini bajarish natijalariga asoslanadi.

Maslahat - muayyan sharoitlarni hisobga olgan holda psixologik ta'sir o'tkazish.

Mas'uliyat - bu ixtiyoriy shaxsning o'z xatti-harakati va faoliyati natijasi uchun javobgarlikni his etishidir. Mas'uliyat - bu shaxsning o'z zimmasiga olgan yoki unga topshirilgan majburiyatlariga hisob bera olishida, xatti-harakatlarida, kimnidir-nimanidir ayblamay, xatti-harakati natijalari va uning oqibatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishida ko'rindigan fazilatdir.

Mas'uliyatning inson xulqidagi muhim belgisi - o'z vazifasini bajarishidagi aniqlik, puxtalik, hozirjavoblik, o'zini majbur qila olish, o'z xatti-harakatlari oqibatiga javob berishga tayyor turish va h.k. Mas'uliyatli xulqni amalgamoshirish quyidagi irodaviy sifatlarga ega bo'lishni talab qiladi: qat'iyatlilik, chidamlilik, o'zini tuta bilish, barqarorlik va h.k.

Pedagogik jarayon sub'yektlarida mas'uliyat xulqini shakllantirish faqat psixologik omillargagina bog'liq bo'lmay, mazkur jarayonni tashkil etish va nazarat qilish bilan bog'liq boshqa omillarga ham bog'liqdir. Masalan, o'quvchitalabalarga bo'lgan ishonch, turli xil vazifalarning topshirilishi va ularni nazarat qilish xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi.

Maxsus strategiya - ta'lim muassasasida pedagogik jarayonlar samaradorligini pasayib ketishini, o'quvchitalabalarning o'zlashtirish darajasini DTS talablari darajasidan tushib ketmasligini, shuningdek, tajribali, bilimli, o'z kasbini fidoiylari bo'lgan professor-o'qituvchilarni ta'lim muassasasidan ketib qolishlarini oldini olish maqsadida uzoq muddatga tuziladi.

Maqsad - ixtiyoriy tizimning tizim tashkil etuvchi komponenti hisoblanadi, pedagogik tizimni boshqarishda maqsadning ahamiyati aniq faoliyatning maqsadi sifatida belgilanadi. Bunda avval maqsad umumiylis hisoblanadi, uni

loyihalashtirish jarayonida vaziyatlar inobatga olingan holda topshiriqlar bo'yicha taqsimlanadi. Ya'ni, boshqaruvda maqsadni shakllantirish bir necha darajada amalga oshiriladi: umumiy maqsadni belgilash; umumiy (strategik) maqsadni aniqlashtirish; vaziyatga ko'ra maqsadlarni ishlab chiqish.

Boshqaruv tizimida maqsadga samarali erishishning asosiy shartlaridan biri maqsadni belgilash talablariga rioya qilish: maqsadlar oldindan belgilangan va aniq shakllantirilgan bo'lishi; bajaruvchilar tomonidan qabul qilingan va ularga tushunarli bo'lishi; maqsadlar tahlil qilingan va bajarilish muddati belgilangan, shuningdek, bajaruvchilarning harakati motivlashtirilgan bo'lishi; vertikal va gorizontal bo'yicha kelishilgan turli xil topshiriqlar yo'nalishida taqsimlanishida maqsadlarning birligi saqlanishi zarur hisoblanadi.

Maqsadli-motivlashtirish funksiyasi. Pedagogik jarayonlarning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri motivlashtirish bo'lib, samaradorlikka erishishda pedagogik jarayonlarning maqsadini, maqsadga erishish yo'nalishida belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyatini, o'rganiladigan tushunchalarning zaruriyati, ahamiyati va mazmun mohiyatini o'quvchi-talabalarning boshlang'ich tushunchalariga bog'liq holda tushuntirish, o'rganiladigan tushunchalarga nisbatan o'quvchi-talabalar qiziqishini rivojlantirish asosida vaziyatlarga ko'ra ularning faolligini ta'minlash va o'zaro munosabatlarni muvofiqiashtirib borish jarayonida professor-o'qituvchilar tomonidan boshqaruvning maqsadli-motivlashtirish funksiyasi amalga oshiriladi.

Ma'qullash - pedagogik jarayonlarda sub'yeqtzlarning faoliyatiga, xatti-xarakatiga, bildirgan fikrlariga, ijodiy yondashuvlariga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabat.

Ma'lumot - ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, inson shaxsining rivojlanishini ta'minlovchi, maxsus tashkil etilgan tizim bo'lib, o'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanadi.

Ma'lumotlilik - shaxsiy sifat ko'rsatkichi, ya'ni shaxsning rivojlanish darajasi, uning tajribasi, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirganligi va ulardan foydalanish hamda ular yordamida yangi bilim-ko'nikmalarni egallab, rivojlantirib borish qobiliyatları tushuniladi.

Menejment - inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil etish (boshqarish, boshqaruv hokimiyyati, tashkil etish), rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma'nolarini anglatadi. Menejment - bu ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya'ni individlar yoki ularning guruhlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakkari va vositalari majmui.

Milliy-hududiy yondashuv. Ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish jarayonlari turli xil tizimlar va tizimosti bo'g'inlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning sezilarli darajada o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Boshqaruv qarorlarining mazmun va mohiyati turli xil darajada belgilanmoqda: davlat, hududiy, shahar, tuman va muassasalar miqyosida. Bugungi kundagi tizimning avvalgi tizimdan asosiy farqlaridan, afzalliklaridan biri ta'limning demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishidadir. Shundan kelib chiqib, pedagogik jarayonlarni boshqarishda sub'yektlar mustaqil qarorlar qabul qilish, ta'lim muassasasining mustaqil siyosatini olib borish, taktika va strategiyani mustaqil belgilash, hududiy va boshqa rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatlariga ega.

Moyillik - bu anglab yetilmagan qobiliyatdir. O'z qobiliyatlarini anglab yetish ma'lum bir faoliyat turiga

qiziqishni keskin orttiradi va shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatishi uchun ma'lum imkoniyatlarni yaratadi.

Motivlashtirish - bu ma'lum ehtiyojlardan kelib chiqib, kishilar faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir.

Pedagogik jarayonlarda davlat va jamiyat, shaxs, fan va ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sub'yektlarning xatti-harakatlarini, faoliyatini muvofiqlashtirish, erishish zarur bo'lgan maqsadlar yo'nalishida professor-o'qituvchilar va o'quvchi-talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, ularning faolligini rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan motivlashtirishga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda qulay ta'limiy muhitni shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda sub'yektlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganish asosida ularning faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish zarur bo'lib, mazkur jarayonda motivlashtirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda motivlashtirish tashabbuslarni ishlab chiqish va tahlil qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, sub'yektlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ijtimoiy amaliyot va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda natijalarning samaradorligini tahlil qilishni hamkorlikda tashkil etish, o'quvchi-talabalarda o'quv motivlarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Muammo - har qanday tizimda mavjud va zarur bo'lgan holatdan chetga chiqishni tavsiflovchi vaziyat (voqelikni)ni anglatadi.

Muvofiqlashtirilgan yondashuv. Pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish, ko'zlangan maqsadga erishishda sub'yektlar faolligini ta'minlashga jalb etiladigan surʼ-xarajatlarning me'yordan ortmasligini ta'minlovchi, sub'yektlarning imkoniyati, qobiliyati va boshlang'ich

tushunchalariga hamda mavjud vaziyatlar va shartsharoitlarga mos keluvchi, eng qulay bo'lgan hamda pedagogik jarayon va uning tarkibiy tuzilishini qayta tashkil eta oladigan tizimni vujudga keltirish muvofiqlashtirilgan yondashuvni joriy etishdir.

Muvofiqlashtirilgan yondashuvni amaliyatga tatbiq etilishi natijasida sub'yektlarning faolligini hamda pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlash uchun sarf etiladigan mehnat va vaqt tejaladi, shuningdek, pedagogik jarayonlarda bir tomonlamalilik (sub'yekt sifatida faqat o'qituvchining o'zi faoliyat ko'rsatishi) bartaraf etiladi.

Mujassamlashtirilgan strategiya - pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etishning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan hamda ta'lim muassasaning yaxlit faoliyatini o'zida jamlagan mo'ljaldir.

Muzokaralar - ixtiloflarni hal qilish usuli sifatida taktik usullarning majmuidan iborat bo'lib, qarama-qarshi tomonlarning o'zaro maqbul yechimga kelishlariga qaratilgan bo'ladi.

Muloqot. Insonlarning ma'lum bir jamoada yoki guruhda hamkorlikdagi faoliyatları jarayonida vujudga keladigan ehtiyojlardan bo'lib, ularning o'z faoliyatları davomida o'zaro munosabatlarga kirishish jarayoni hisoblanadi. Insonlarning barcha faoliyatları davomida o'zaro munosabatlar, ta'sir etish shakllarini o'z ichiga oladigan mazkur tushuncha ularning o'zaro bir-birlarini tushunishlari, hamkorlik qilishlari hamda o'zaro axborotlar almashinislari uchun zarur hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyada muloqot uchta turga bo'linadi. Birinchisi, insonlarning o'z-o'zi bilan muloqoti, ikkinchisi insonning boshqa insonlar bilan muloqoti, uchinchisi avlodlararo muloqot bo'lib, mazkur muloqotlar natijasida bir avlodning tajribasi ikkinchi avlodga o'rgatiladi, bu esa pirovardida insonlarning rivojlanishiga, hayot, fan-texnika va texnologiyalarning taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Shundan

ko'rinib turibdiki, muloqot yoki boshqaruv - muloqotisiz boshqaruv jarayonini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Mustaqil ma'lumot - bu avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'z ichki tuyg'ulari asosida mustaqil o'rghanishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuining natijasi bo'lib, insonning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Mustaqil ma'lumot inson shaxsining rivojlanishida, tajribalarni egallashida qulayliklar yaratsa, mustaqil ta'lim esa ta'lim olishning asosi hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim - bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rghanishga yo'naltirilgan shaxsiy xatti-harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy roль o'ynaydi.

Nazorat - bu boshqaruv jarayonining faol bosqichlaridan biri bo'lib, u boshqaruvning barcha funksiyalari bilan bog'liq bo'ladi. Umumiyl holda rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o'zaro solishtirish jarayoni bo'lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Pedagogik tizimni boshqarish jarayonida ko'zlangan yo'nalishdan chetga chiqishlar ham vujudga kelishi mumkin, bunday vaziyatlarda nazorat yo'l qo'yilayotgan xatolarning sababini o'z vaqtida aniqlash va ularni tuzatish usullarini belgilash imkoniyatlarini yaratadi. SHuning uchun boshqaruv faoliyatining barcha bosqichlari uchun nazorat zarur hisoblanadi.

Nazorat-tashxis funksiyasi - rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o'zaro solishtirish jarayoni bo'lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Natijalar bo'yicha boshqaruv. Bunday yondashuvning asosiy g'oyasi shundan iboratki, hech bir jarayon, jumladan, pedagogik jarayon ham o'zi-o'zicha hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Pedagogik jarayonlarning ahamiyati uning

natijaviyligida o'z ifodasini topadi va uning natijaviyligi sub'yeqtalar (o'quvchi-talabalar)ning faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida turli rivojlanishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Natijalar bo'yicha boshqaruv tushunchasi rivojlanish tizimi sifatida amal qiladi va pedagogik jarayon sub'yeqtлari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash asosida belgilangan natijalarga erishish mumkin. Mazkur jarayonda belgilangan vazifalar va o'rganiladigan tushunchalarning mazmun-mohiyatini har bir ishtirokchiga tushuntirish orqali sub'yeqtлarning o'zini-o'zi boshqarishi hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvni joriy etishi ta'minlanadi.

Novatorlik g'oyalari - yangiliklar yaratish, ularni pedagogik jarayoniga tatbiq etish va ma'lum bir innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'yicha g'oyalari.

Oldindan ko'rish - rejallashtirish funksiyasi. Boshqaruv faoliyati-ni oldindan ko'rish (anglash) va rejallashtirish funksiyasi uchun maqsadli-motivlashtirish boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi, oldindan ko'rish-rejallashtirish funksiyasi tashkiliy shakllar, usullar, ta'sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me'yori va natijalarini baholashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik tizimni va uning ishtirokchilarining xatti-harakati va faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solishga imkoniyat yaratadi.

Pedagogik jarayon - bu shaxslararo munosabatlarda, bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish jarayonida (tarbiyaviy munosabatlar) insonlarning shaxsiy sifatlarining shakllanishi va rivojlanishiga, xatti-harakati va dunyoqarashini o'zgarishiga, tajribasining boyishi, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladigan omillar mavjmuini tashkil qiluvchi ta'limiy muhit.

Pedagogik mahorat - professor-o'qituvchilar tomonidan pedagogik jarayon sub'yeqtлarning ikoniyatlari,

qobiliyati va boshlang'ich tushunchalarini inobatga olgan holda milliy qadriyatlarimizni, hayotiy tajribalarni, fan va texnika sohalaridagi yutuqlarimizni o'rgatishni ta'minlaydi hamda ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik takt - har qanday pedagogik ta'sirga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni (rag'batlantirish, jazolash, pand-nasihat) his eta bilishdan iboratdir. Qobiliyatli rahbar xodimlarga e'tibor berib ziyraklik bilan qaraydi, ularning individual psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi. Bunda muhimi - bo'ysunuvchilarga ta'sir etishning eng qulay usullarini topa bilish, tarbiyaviy ta'sirni qo'llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, xodim shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarni hisobga olish zarur.

Pedagogik qobiliyat - bu boshqaruva jarayonida rahbarlar va professor-o'qituvchilar uchun eng zaruriy xususiyatlardan bo'lib, ularning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini, shuningdek, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqara olishini belgilaydi.

Pog'onaviylik - tashkiliy tuzilishga ko'ra ta'lim muassasasining yuqori bo'g'ini (rahbarlar) bilan quyi bo'g'ini (ijrochilar) o'rtaqidagi masofaning katta-kichikligini ifodalaydi, ya'ni rahbar bilan oddiy ijrochi o'rtaqidagi masofa qanchalik katta bo'lsa (darajalar soni) ta'lim muassasalaridagi pog'onaviylik darjasini shunchalik katta bo'ladi.

Prinsip - bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, asos, dastlabki, xatti-harakat va faoliyatning asosiy negizi kabi ma'nolarni bildirib, rahbarlar va professor-o'qituvchilarning o'z faoliyatidagi bir so'zligi va qat'iyatlilikidir. Ularning prinsipliligi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda, sub'yektlar faoliyatini muvofiqlashtirishda

hamda pedagogik jarayonlarda ijodiy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixik jarayonlar - bu ob'yektiv olamni sub'yektiv aks ettirishning turli shakllaridir. Psixik jarayonlar psixik funksiyalar deb ham aytildi. Psixik jarayonlarning asosiy turlari sezgi, idrok, xotira, tasavvur, xayol, tafakkur, nutq, hissiyat, iroda bo'lib, ular o'z navbatida uch guruhga birikadi: bilish jarayonlari, irodaviy jarayonlar, hissiy jarayonlar.

Psixologik holatlar - psixik faoliyatning vaqtinchalik dinamikasi bilan tavsiflanadi. Bu inson ichki dunyosining muhim tomoni bo'lib, faoliyatga ta'sir ko'rsatadi. Psixik holatlarga charchash (toliqish), emotSIONAL zo'riqish (stress), monotoniya va boshqa psixik holatlar kiradi va bular o'zaro bog'liq bo'ladi.

Rahbar madaniyati - rahbar odobi va iqtidori o'rtasidagi dialektik bog'lanish. Bu bog'lanish odob, iymon, insof,adolat va iqtidor kabi fazilatlar majmuidan iborat bo'ladi. Rahbarning kasbiy madaniyati deganda rahbarning professionalligi, uning professional boshqaruv faoliyatini bajarishga tayyorgarlik darajasi tushuniladi. Bunda rahbarlarning maqsadga muvofiq u yoki bu kasbiy sifatlari alohida vaziyatlarda har bir rahbarning "ideal modelini" shakllantirishga asoslanadi.

Rahbarlik - insonlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdir. Rahbarlar qator funksiyalarni bajaradi: jamoa faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, mazkur faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, ularni nazorat qilishni amalga oshiradi.

Rahbarlik - odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir.

Rahbarlik uslublari - rahbar o'zining boshqaruv faoliyatida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar va xatti-harakatining taktika va strategiyalaridan tashkil topgan

